



Institute of Forecasting and
Macroeconomic Research

20
22

Faoliyatning
asosiy
ko'rsatkichlari

INSTITUT JAMOASI

IFMR

Institute of Forecasting and
Macroeconomic Research



Mundarija

I	Makroiqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar.....	4-18
II	Ijtimoiy soha.....	19-25
III	Uy-joy bozori tahlili.....	26-30
IV	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiyotga qanday yo'llar bilan ta'sir o'tkazadi?.....	31-33
V	O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot istiqbollari.....	34-40
VI	Transport sektoridagi imkoniyatlar.....	41-43
VII	Agrosanoat.....	44-47
VIII	Iqtisodiyotning real sektori.....	48-54
IX	Hududlarni rivojlantirish.....	55-64
X	Investitsiyalar.....	65-66
XI	Aholi farovonligini ta'minlash.....	67-71

Makroiqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar

0,8%

QQS stavkasini 3 foizga pasaytirish inflyatsiya darajasini 0,8 %ga kamaytiradi.

22,1%

2023-yilda meva va sabzavotlar inflyatsiyasi 22,1 %ni tashkil etadi.

11%

2022 yilning may oyida yillik Iste'mol narxlar indeksi (INI) 11% ni tashkil etdi.

0,5-2,5%

Moliyaviy sektor rivojlanishining 1 foiz punktiga ortishi iqtisodiyotda 0,5-2,5% ga o'sishni ta'minladi.



QQSning pasaytirilishi O'zbekiston iqtisodiyotiga qanday ta'sir qiladi?



42 SONIYA



2023-yil uchun bazaviy inflyatsiya va mavsumiy o'zgaruvchan inflyatsiya (meva-sabzavotlar narxi) ning o'zgarishi prognozi



37 SONIYA

QQS stavkasini 3% ga pasaytirish inflyatsiya darajasini 0,8% ga kamaytiradi.

2023-yildan qo'shilgan qiymat solig'ini 15% dan 12% ga tushirish ko'zda tutilgan.

15% lik QQS stavkasi davlat byudjetini yillik 38,4 trillion so'm miqdoridagi ajratmalar bilan ta'minlaydi. Bu byudjet mablag'larining deyarli 25% ini tashkil etadi. Biroq, turli rag'batlantirish va huquqiy tartibga solish choralari tufayli soliqlar notekis qo'llaniladi. Buning natijasida ayrim tarmoqlar bir xil QQS stavkasi bo'yicha ancha ko'proq bosim ostida qolmoqda.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, QQS stavkasining 3% ga pasaytirilishi inflyatsiya darajasini 0,8% ga kamaytiradi. Tayyor mahsulotlar ulushi yuqori bo'lgan korxonalar uchun soliq yuki kamaytirilsa, bu ularning yanada jadal rivojlanishiga imkon beradi.

QQS stavkasining 3% i miqdoridagi kamomadni amaldagi va nominal stavkalar o'rtasidagi tafovutni kamaytirish orqali to'ldirish mumkin.

QQS bo'yicha soliq yuki iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha notekis taqsimlangan. Masalan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida soliq yuki 8,5%, qishloq xo'jaligida - 5%, qurilish va aloqa xizmatlarida - 79%, chakana va ulgurji savdoda - 59%, sanoatda 43% ni tashkil etdi.

2023-yilda meva va sabzavotlar inflyatsiyasi 22,1% ni tashkil etadi.


Inflyatsiya tarkibiy qismlari 3 ta asosiy guruhga ajratilib, tahlil va prognoz qilindi. Bular: bazaviy inflyatsiya, tartibga solinadigan narxlar va mavsumiy o'zgaruvchan narxlar (meva va sabzavotlar) inflyatsiyasi. Bazaviy inflyatsiyani hisoblashda mavsumiy o'zgarishlarga ta'sirchan tovar va xizmat turlari hisobga olinmaydi. Tartibga solinadigan narxlar inflyatsiyasi ma'muriy tartibga solinadigan tovar va xizmat turlaridan iborat bo'ladi. Mavsumiy o'zgaruvchan inflyatsiyani hisoblashda esa O'zbekiston sharoitida asosan meva va savzavotlar narxi inobatga olinadi.

O'zbekiston holatida bazaviy inflyatsiya hissasiga Iste'mol narxlari indeksi (INI) o'sishining 78% i to'g'ri keladi va odatda pul-kredit siyosati bilan bog'liq qarorlar ushbu inflyatsiya natijalari asosida qabul qilinadi.

Meva va sabzavotlar iste'mol narxlari indeksi (INI) savatidagi eng o'zgaruvchan guruhlar bo'lib, butun INI savatining 8% ini tashkil qiladi.


Prognozga ko'ra 2023-yil uchun bazaviy inflyatsiya 10,5% ni, meva va sabzavotlar inflyatsiyasi 22,1% ni tashkil etadi.

QQS stavkasining 3% ga pasaytirilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining narxlar tushishiga qo'shadigan hissasi




1. Qayta ishlash sanoati	39%
2. Qurilish	14%
3. Savdo	10%
4. Boshqa xizmatlar	4%
5. Tashish va saqlash	6%
6. Qazib olish sanoati	6%
7. Qishloq xo'jaligi	7%
8. Axborot va kommunikatsiya	4%
9. Energetika	3%
10. Boshqaruv va mudofaa	2%
11. Moliya	1,5%
12. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy soha	1%
13. Suv, kanalizatsiya, chiqindi	0,5%

Mavsumiy o'zgaruvchan guruhlar (oylik inflyatsiya)



Oylik bazaviy inflyatsiya



90% 70% 50% 30% Forecast SARIMA Forecast ARIMA Fact



Bank xizmatlarini ko'rsatishdagi yutuqlar va muammolar



81 SONIYA

Moliyaviy xizmatlarda bank xizmatlarining ulushi 90% dan yuqori bo'lib, qolgan qismini sug'urta, kredit, lizing, mikrokredit, mikrolizing, fond bozori, qimmatli qog'ozlar bo'yicha xizmatlar va boshqa turdagi moliyaviy xizmatlar tashkil etadi.

Hozirgi kunda 33 ta bank, jumladan davlat ulushi mavjud bo'lgan 12 ta bank iste'molchilarga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlarning 85 % davlat ulushi mavjud banklar hissasiga to'g'ri keladi. Oxirgi 5 yil mobaynida bank sohasi sezilarli darajada kengaydi va rivojlandi. Tijorat banklari tomonidan mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi bank filiallari soni 876 taga, mini-banklar 4177 taga yetdi.

Yutuqlar

Bank sohasida quyidagi islohotlar amalga oshirildi:

- Moliya vazirligi tarkibida Davlat ishtirokidagi tijorat banklarini isloh qilishni muvofiqlashtirish departamenti tashkil etildi,
- "Markaziy bank to'g'risida"gi va "Banklar va banklar faoliyati to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirishlar kiritildi,
- zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish bilan naqd pulsiz hisob-kitoblar infratuzilmasi rivojlantirildi,
- uzluksiz to'lov tizimlari kengaytirilib, terminallar Humo va Uzcard kartalaridan o'zaro qabul qilish uchun takomillashtirildi,

- masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish kengaytirildi (masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni oxirgi 5 yilda qariyb 4,5 barobar ko'payib, 4,4 mln. dan 20,2 mln. ga yetdi),
- Raqamli banklar faoliyat yurita boshladi (TBC, Anor bank, Apelsin bank).

Aniqlangan muammolar:

- bank sohasida davlat ulushining yuqoriligi (bank aktivlarining 80 foiz davlat ulushi mavjud banklarga tegishli);
- infratuzilmalarning yetarli darajada rivojlanmagani sababli to'lov kartalaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklangani va bankomatlar sonining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlaridagi o'rtacha ko'rsatkichdan pastligi (har 100 000 kishiga 48 ta bankomat);
- kreditlashda jismoniy shaxslarni qamrab olish darajasining pastligi (kreditlarning faqat 19 foizi jismoniy shaxslarning ulushiga to'g'ri keladi, dunyo mamlakatlarida esa o'rtacha 40 foiz).

Takliflar:

- raqamli bank va fintech kompaniyalari kirishiga yanada ko'proq imkoniyat yaratish;
- banklarda xizmat ko'rsatish shohobchalarini kengaytirish va bank xizmatlari ko'rsatishning muqobil usullarini joriy etish bilan iste'molchilarga qulaylik yaratish;
- bank xizmati tranzaksiya vaqti va narxini kamaytirish hamda mijozlar uchun firibgarlik xavfini kamaytirish.





Milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida energiya xarajatlarining o'zgarish dinamikasi



27 SONIYA



Asosiy iste'mol tovarlari narxining oxirgi 5 yildagi o'zgarishi va uning aholi farovonligiga ta'siri



33 SONIYA

Energiya resurslari xarajatlarining ishlab chiqarish tarkibidagi ulushi 4% dan 7% ga o'sgan

Tahlillar neft va gaz qazib olish, qurilish materiallarini ishlab chiqarish (sement, g'isht va boshqalar), davlat boshqaruvi va elektr energiyasini ishlab chiqarish sohalarida energiya sarfini kamaytirish maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatmoqda.

2016-2018 yillarda energiya resurslari (elektr energiyasi, gaz, neft, ko'mir) xarajatlarining ishlab chiqarish tarkibidagi ulushi nisbatan barqaror bo'lgan va taxminan 4% ni tashkil etgan. 2019-yildan boshlab esa 4% dan 7% gacha o'sish tendensiyasi kuzatilgan.

Respublika iqtisodiyotining energiyani eng ko'p talab qiladigan tarmoqlariga birlamchi tarmoqlar (qishloq xo'jaligi va qazib olish sanoati), shuningdek, elektr energetikasi, qurilish va xizmat ko'rsatishning yangi turlarini o'z ichiga oladigan tarmoqlarni kiritish mumkin.

Oxirgi yillarda jamoat transporti, gaz, elektr energiyasi ta'minoti va boshqa sohalarida narxlarning barqarorligi kuzatilmoqda. Tadqiqot davomida asosiy iste'mol tovarlari narxining o'sish dinamikasi va O'zbekistonda o'rtacha ish haqining o'zgarishi solishtirildi.

Natijalar aholining asosiy qismi uchun benzin, propan, go'sht narxining oshishi sezilarli bo'lganini ko'rsatdi. Aholi daromadlari bu tovar turlariga qaraganda sekinroq o'sgan.


Boshqa tomondan esa, elektr energiyasi, gaz, paxta yog'i, 1-nav bug'doy uni, havo transporti va temir yo'l transporti, oliy ta'lim (universitet) shartnoma puli, maktabgacha ta'lim muassasalari uchun to'lovlar miqdorining baqror saqlanishi aholining xarid qobiliyatiga ijobiy ta'sir qilgan.

Energiya, transport va kommunikatsiya xizmatlari narxlari davlat tomonidan tartibga solinadi.


Davlat statistika qo'mitasining ma'lum qilishicha, 1-sentyabr holatiga ko'ra, yil boshidan buyon inflyatsiya darajasi 6,98% ni tashkil etgan. Markaziy bank 2022-yilda inflyatsiya 12% dan biroz yuqori bo'lishini kutmoqda.



Birlamchi sektor (o'rtacha 6,6%, jami iqtisodiyot bo'yicha 4,7%)



2017-2022 yillarda asosiy iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi hamda oylik ish haqining o'zgarish dinamikasi (2017-yilning 1 choragiga nisbatan foiz hisobida)



Manba: Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida.



6%

oziq-ovqat mahsulotlari
inflyatsiyasi 6%

3,6%

nooziq-ovqat mahsulotlari
inflyatsiyasi 3,6%

1,4%

xizmatlar inflyatsiyasi
1,4%



Markaziy Osiyo (MO) mamlakatlarida moliyaviy sektor rivojlanishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik



42 SONIYA



Inflyatsiya va uning o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar



47 SONIYA

Dunyo mamlakatlarida moliya sektori va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik turlicha bo'lgan. Masalan, Shotlandiya, Belgiya, Rossiya va Yaponiyada moliyaviy sektor sanoatlashishni jadallashtirishga xizmat qilgan bo'lsa, Angliya, Germaniya va Fransiyada sanoatning rivojlanishi moliyaviy sektor rivojlanishiga olib kelgan. Markaziy Osiyo mamlakatlari misolida quyidagilar aniqlandi:

Markaziy Osiyo davlatlarida moliyaviy sektorning rivojlanishi shunchaki iqtisodiy o'sish natijasi emas, balki uning sababidir. Moliyaviy sektor rivojlanishining 1 foiz punktiga ortishi iqtisodiy o'sishning 0,5-2,5% oshishiga olib kelgan.

Moliyaviy sektorning rivojlanishi va iqtisodiy o'sishi o'rtasidagi bir tomonlama bog'liqlik mavjud. Banklar tomonidan beriladigan kreditlar iqtisodiy o'sishga olib kelgan, lekin iqtisodiy o'sish moliyaviy xizmatlarga qo'shimcha talabni shakllantirishga xizmat qilmagan. Bu moliya bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi, pul mablag'larini ushbu sektorga qayta jalb qilishda vositalarning yetishmasligi va jamg'armalarni jalb qilish darajasining pastligi bilan bog'liq.

Ta'kidlash joizki, keyingi bosqichda yuqori-o'rta daromadli mamlakatlar qatoriga o'tish uchun moliya sektorini yanada rivojlantirish va iqtisodiy o'sishning moliyaviy xizmatlarga qo'shimcha talabni shakllantirishini ta'minlash kerak. Buning uchun moliyaviy ommaboplikni orttirish talab etiladi.

2022-yilning may oyida yillik Iste'mol narxlari indeksi (INI) 11% ni tashkil etdi. Uning tarkibida, oziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasi 6 foizga, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar inflyatsiyasi, mos ravishda 3,6% va 1,4% ga to'g'ri keladi.


Hisob-kitoblar savdo hamkori bo'lgan mamlakatlardagi inflyatsiya O'zbekistondagi inflyatsiyaga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Chunki asosiy inflyatsiyaning taxminan 38% i import inflyatsiyasining o'sishi bilan bog'liq. O'zbekistonda pul massasi, foiz stavkasi va YaIM kabi talab omillarining inflyatsiyadagi ulushi 29% ni tashkil etadi. Nihoyat, narxga ta'sir etuvchi omillaridagi o'zgarishlar O'zbekistonda iste'mol narxlari indeksining 33% ga o'sishiga turtki bo'lmoqda.

2022-yilning 5 oyida O'zbekistonda umumiy inflyatsiya darajasi 11% ni tashkil etgan bo'lsa, buning 4,18% ini import inflyatsiyasi tashkil qilgan. Unda Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Janubiy Koreya va Turkiya kabi asosiy savdo hamkorlarimizning ulushi 2,73% ga yetdi. Import inflyatsiyasiga Rossiya va Xitoydagi inflyatsiyaning ta'siri katta.


O'zbekistonning umumiy importida ushbu mamlakatlarning ulushi salmoqli, ya'ni 21% va 19%. Shu bois ularning inflyatsiyaga ta'siri ham sezilarli, aniqrog'i 0,90% va 0,81%. Qozog'iston, Janubiy Koreya va Turkiyaning import inflyatsiyasiga ta'siri esa umumiy import inflyatsiyasining taxminan 0,45%, 0,30% va 0,28% ini tashkil etdi.

Kichik biznesni ekspress tekshirish natijalari va iqtisodiy faollikning ortishini baholash

Korxonalar elektr energiyasini yetkazib berishda beqarorlik muammosiga duch keldimi?



Korxonalar qo'shimcha miqdorda elektr energiyasi kerakmi?



Kichik korxonalarni elektr energiyasi bilan ta'minlashning barqarorlik va ishlab chiqarish hajmini oshirishga ta'siri



73 SONIYA

Elektr energiyasi ta'minotining tarmoqlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini hisoblash natijalari shuni ko'rsatdiki, elektr energiyasini iste'mol qilishning biroz o'sishi ham (1,6-2,2 % ga) to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning - 1,14-1,42%, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning - 1,42-1,49%, qurilish materiallarini ishlab chiqarishning - 0,95-1,16%, elektrotexnika mahsulotlarini - ishlab chiqarishning 1,37-1,51% o'sishiga olib keladi.

«Xarajatlar va ishlab chiqarish» (Input-Output) usulidan foydalanish shuni ko'rsatmoqdaki, barqaror energiya ta'minoti YalMning o'sish dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uni 0,41 foiz punktiga, soliqlarni 0,52 foiz punkitga, eksport hajmini 146 million dollargacha, aholi bandligini 14-15 ming kishigacha oshiradi.

Olingan hisob-kitob natijalarida boshqa tarmoqlardagi o'zgarishlar ham inobatga olinadi.

Ellikta kichik biznes subyekti ishtirokida o'tkazilgan tezkor so'rov natijalari elektr energiyasi yetkazib berish barqarorligi va hajmi oshgan taqdirda deyarli barcha korxonalar rivojlanish uchun yaxshi imkoniyatga ega

Mahsulot/xizmat hajmi qanchaga oshadi?



bo'lishini ko'rsatdi. Energiya ta'minoti barqarorligi ta'minlansa, korxonalarning 64% i ishlab chiqarish hajmini 10% dan 20% gacha oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Qo'shimcha elektr-energiyasi berilgan taqdirda korxonalarning 72% i ishlab chiqarish hajmini kamida 20% ga oshirishi mumkin. Mavjud zaxiralarni va iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini jalb etish, energetika sohasida islohotlarni davom ettirish va energiya quvvatlarini rivojlantirish, o'sib borayotgan talabni qondirish uchun infratuzilmani kengaytirishni taqazo etadi.


Elektr energiyasi iste'molining ortishi va uni yetkazishning barqarorlik darajasini modellashtirish natijalari

Tarmoqlar




Faoliyat yo'nalishi:

- To'qimachilik mahsulotlari
- Oziq-ovqat mahsulotlari
- Qurilish materiallari
- Elektrotexnika mahsulotlari





Dastlabki impuls



TARMOQLARGA ta'siri (to'g'ridan-to'g'ri)




TARMOQLARGA ta'siri (to'liq)








Dastlabki impuls

Iqtisodiyot real sektorining 4ta tarmog'i yig'indisiga ko'ra

Prognoz davrida to'plangan ta'sir



UMUMAN IQTISODIYOTGA ta'siri





Dollar yoki so'm: valyuta kursi, jamg'arish va investitsiya



2022-yil mart-iyun oylarida tijorat banklari tomonidan aholdan AQSH dollarini sotib olish o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 1,9 barobarga ortgan.

2022-yilning 25-yanvarida ro'y bergan blekaut paytida 2–3 ming so'mlik shamlarning narxi 7–10 ming so'mgacha ko'tarilib, ertasi kuni yana 2–3 ming so'mga qaytgani singari AQSH dollari taklifi cheklangan bir paytda unga talabning birdaniga oshishi dollar kursining ko'tarilishiga olib keladi yoki aksincha, bozorda dollar ko'p bo'lib, yetarli darajada xaridorning yo'qligi kursning tushib ketishiga sabab bo'ladi.

Joriy yil mart oyining o'rtalaridan rublning AQSH dollariga nisbatan kursi mustahkamlana boshlashi ortidan O'zbekistonda ham dollar kursining tusha boshlashi aholi tomonidan tijorat banklariga sotilgan AQSH dollari miqdorining sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ldi.

2022-yil mart-iyun oylarida tijorat banklari tomonidan aholdan 4,46 milliard AQSH dollari sotib olingan (2021-yilda 2,36 milliard dollar) bo'lib, bu o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 1,9 barobarga ortgan.

Huddi shu davrda aholining AQSH dollaridagi jamg'armalarini so'mga aylantira boshlashi natijasida muomaladagi naqd pul miqdori 12,6 trillion so'mga yetdi.

Ichki valyuta bozorida dollar kursining barqarorlashuvi import tovarlari narxlarini muvozanatlashtirib, inflyatsiyaga ta'sirini kamaytiradi. Ushbu tahlil natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyotda dollarlashuv darajasini kamaytirish hamda aholi orasida uzoq yillar davomida shakllangan «AQSH dollari — jamg'arish va investitsiya vositasi» degan qarashni o'zgartirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Ko'chmas mulk, mashinalar oldi-sotdisi kabi katta hajmdagi hisob-kitoblarni naqd pulda amalga oshirishni osonlashtirish uchun 500 ming so'mlik, 1 million so'mlik kupyuralarni muomalaga chiqarish;
O'rta muddatli istiqbolda Markaziy bank tomonidan raqamli valyutalarni muomalaga chiqarish;

Aholining jamg'armalarini moliya sektoriga jalb qilish uchun milliy valyutadagi moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish, moliya va kapital bozorlarini rivojlantirishni jadallashtirish, xususan, xususiylashtirilishi rejalashtirilgan davlat korxonalarini aksiyalarini muomalaga chiqarish va bunda aksiyalarning aholi tomonidan sotib olinishini rag'batlantirish;





Global geoiqtisodiy hodisalarning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri



Iqtisodiyotiga asosan bozor shartlarida olingan tashqi qarz (masalan, suveren yevrobondlar va tijorat banklari yevrobondlari) kanallari orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin.

So'nggi 3 yilda davlat ulushi mavjud banklarning xalqaro tijorat banklari, taraqqiyot banklari va xalqaro moliya tashkilotlaridan olingan qarzlar miqdori ko'paydi. Bu esa bank sektori tashqi qarzini 2018-yildagi YaIMning salkam 2% i miqdoridan 2021-yilda YaIMning qariyb 10,5% igacha oshirdi.

Hozirgi geoiqtisodiy hodisalar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston global inqirozlar davrida tashqi omillarning iqtisodiyotimizga ta'sirini kamaytirish va iqtisodiy o'sishni moliyalashtirishda "yashirin" ichki imkoniyatlardan foydalanish bo'yicha islohotlarni davom ettirishi lozim. Keng ko'lamlı islohotlar doirasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- kapital bozorini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish va bunda institutsional investorlar, ya'ni pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va o'zaro fondlar faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiyotdagi uzoq muddatli jamg'armalarni jalb qilish orqali mahalliy kapital bozorida talabni yuzaga keltirishni nazarda tutish; mahalliy kapital bozorlari kompaniyalarga milliy valyutada ichki qarz olish imkoniyatlarini oshirib, valyuta nomuvofiqligi va tizimli risklarni kamaytirishga imkon beradi.
- moliya sektorini isloh qilish (jumladan, banklarni xususiyashtirish) jarayonini jadallashtirish orqali xususiy sektor jamg'armalari hajmini oshirish, xususan, aholidan jalb qilingan depozitlarning bank tizimi majburiyatlaridagi ulushini 2025-yilga qadar 50% ga yetkazish lozim. 2022-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, ko'rsatkich 11,7% ga teng.


Global miqyosda oziq-ovqat va energiya narxlarining keskin ko'tarilishi natijasida rivojlangan davlatlar (iyun oyida AQSHda 9,1%, Buyuk Britaniyada 8,2%, Kanadada 8,1%), shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham (Turkiyada 78,6%, Argentinada 63,9%, Estoniyada 21,8%) yuqori inflyatsiya ko'rsatkichlari kuzatildi.

So'nggi 40 yildagi eng yuqori inflyatsiyaga duch kelgan rivojlangan davlatlar markaziy banklari asosiy foiz stavkalarini bir necha marta ko'tarishga majbur bo'ldi. AQSHda Ochiq bozorlar bo'yicha federal qo'mita (FOMC) federal stavkani yil boshidagi 0-0,25% oralig'idan 2,25-2,5% gacha (2,25 foiz punktiga, qatorasiga 4-marta) oshirishga qaror qildi. Angliya banki Pul-kredit siyosati qo'mitasi tomonidan asosiy stavka 0,25% dan 1,75% gacha (qatorasiga 5-marta) ko'tarildi.

Asosiy stavkalarining oshirilishi ortidan moliya va kapital bozorlarida foiz stavkalari ham sezilarli darajada oshib bordi. Natijada, ushbu tendensiya rivojlanayotgan mamlakatlardan kapital oqib chiqib ketishiga, valyutalarining qadrsizlanishiga, qarz yukining ortishiga olib keldi. Xalqaro moliya instituti (IIF) va Reuters xalqaro agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning iyun oyida rivojlanayotgan davlatlardan 4 milliard dollar, may oyida 5,1 milliard dollar, aprel oyida 4 milliard dollar va mart oyida 9,8 milliard dollar miqdorida kapital chiqib ketgan.

Hozirgi sharoitda rivojlangan mamlakatlarda foiz stavkalarining oshirilishi O'zbekiston

Rivojlangan mamlakatlarda real stavka foizi dinamikasi



0,6%

2021-yilda Rossiyadan import qilinadigan xomashyo tovarlari narxining o'sishi O'zbekistondagi ishlab chiqarish xarajatlarining 0,6 foiz punktiga ortishiga sabab bo'lgan.

0,28%

Turkiyadan import qilingan inflyatsiya taxminan 0,28 foiz punktiga teng. Turkiyada inflyatsiyaning kuchayishi O'zbekistondagi iste'mol narxlariga sezilarli ta'sir qilmaydi.



Rossiyadagi inflyatsiyaning O'zbekistondagi inflyatsiyaga ta'siri baholandi



58 SONIYA

Rossiya O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston tashqi savdosining qariyb 18% i Rossiyaning hissasiga to'g'ri keladi. Rossiyadagi inflyatsiya natijasida Rossiyadan import qilinadigan tovarlar va xizmatlar narxi qimmatlashishi O'zbekistondagi inflyatsiya darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

2021-yilda O'zbekistonda inflyatsiya darajasi 10% ni tashkil qilgan. Bunda Rossiyadagi inflyatsiya (2021-yilda 6,7%) O'zbekistonda inflyatsiyaning 0,78 foiz punktiga oshishiga sabab bo'lgan. Rossiyadan import qilinadigan xom ashyo narxlarining o'sishi O'zbekistondagi ishlab chiqarish xarajatlarining 0,6 foiz punktiga oshishiga olib kelgan.

Turkiyadan farqli ravishda (Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda turk lirasini devalvatsiyasi 60,4% atrofida bo'lishi kutilmoqda), bu yil rubl qadrining tushishi (devalvatsiyasi) emas, balki mustahkamlanishi kutilmoqda. Yil davomida rublning AQSH dollariga nisbatan kursi 74,29 rubldan 60,20 rublgacha mustahkamlandi. Bunday sharoitda Rossiyadagi inflyatsiya O'zbekistonda narxlar barqarorligiga Turkiyadagi narxlar ko'tarilishiga qaraganda ko'proq ta'sir qiladi.

2022-yilda Rossiyada rubl qadrining 28,4% ga ortishi hamda inflyatsiya darajasining 21,3% ga yetishi kutilayotgani hisobga olinsa, Rossiya tovarlari jahon bozoriga 69,41% qimmatroq chiqishi mumkin (Turkiyada 1,8%). Buning oqibatida 2022-yilda Rossiyada narxlar oshishining O'zbekistonga ta'siri 6% punktigacha yetishi mumkin. Bu xavfning sababi, shuningdek, O'zbekiston umumiy importida Rossiyaning ulushi (2021-yilda 21,4%) Turkiyaning ulushiga (6,7%) qaraganda ancha yuqori ekani bilan bog'liq. Bu omil inflyatsiyani tezlashtirishdan

tashqari, Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi tashqi savdo balansiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, muvozanatlashmagan to'lov balansini yanada kuchaytirishi ehtimoldan yiroq emas. Bu milliy valyuta barqarorligiga qo'shimcha ta'sirni yuzaga keltiradi.



Turkiyadan qilinayotgan eksport hajmi O'zbekistonda iste'mol narxlariga qanday ta'sir qiladi?



36 SONIYA

Turkiya O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlaridan biri hisoblanib, O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining 7% ga yaqini ushbu mamlakat hissasiga to'g'ri keladi.

2018-yildan Turkiyada inflyatsiya tez sur'atlar bilan o'sa boshladi. 2021-yilda bu ko'rsatkich 19,6% ga yetdi (2017-yilda 11,4%). Joriy yilda esa inflyatsiyaning 60,5% ga yetishi prognoz qilinmoqda.


O'zbekistonning asosiy hamkorlari bo'lgan 5 ta mamlakat: Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Janubiy Koreya va Turkiyadan import inflyatsiyasi hisoblab chiqildi. Bunda har bir hamkor davlatdan qilinayotgan importning ulushidan foydalanildi. Hisob-kitoblar 11% ga teng umumiy inflyatsiyaning 2,73 foiz punkti Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Janubiy Koreya va Turkiyadan qilinayotgan import hajmiga bog'liq ekanini ko'rsatdi. Turkiyadan import qilingan inflyatsiya taxminan 0,28 foiz punktiga teng.

Turkiyada inflyatsiyaning kuchayishi O'zbekistondagi iste'mol narxlariga sezilarli ta'sir qilmaydi.

Agar so'mning devalvatsiya darajasi me'yordan yuqori bo'lsa, bu raqamlar oshishi mumkin. Bu esa valyuta kursi barqarorligini ta'minlash vositalarini takomillashtirishni talab qiladi.

Dengizga chiqish imkoniyati to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalar tahlil qilindi



So'nggi besh yillikda (2017-2021-y.) Xitoyga eksportimiz 24,4% ga, importimiz esa 80,4% ga oshdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2022-yilning yanvar - iyun oylarida ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro tashqi savdo aylanmasi 4,53 mlrd. dollarni tashkil etib, 2021-yilning mos davridagiga (3,29 mlrd. dollar) nisbatan 37,8% ga o'sgan. Bunda eksport 1,25 mlrd. dollarni va import 3,28 mlrd. dollarni tashkil etib, 2021-yilning shu davridagiga nisbatan (eksport 1,03 mlrd. dollar va import 2,26 mlrd. dollar) mos ravishda 21,3 % va 45,4 % ga o'sgan.

O'zbekiston tashqi savdo aylanmasida Xitoyning ulushi 17,7% ni, eksportida 15,2% ni va importida 19,3% ni tashkil etgan. 2021-yilda o'zaro tashqi savdo aylanmasi 7,44 mlrd. dollarni tashkil etgan. Buning 2,52 mlrd. dollari eksport va 4,92 mlrd. dollari import bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi besh yillikda (2017-2021-y.) Xitoyga eksportimiz 24,4% ga, importimiz esa 80,4% ga oshdi. Bu esa, mamlakatimizning Xitoy bilan savdo aloqalari mustahkamlanib borayotganligidan dalolat beradi. Buni yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanayotganligi hamda Xitoy bilan ikki tomonlama strategik hamkorlik aloqalari bilan izohlash mumkin.



To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlandi.



Dengizga chiqish imkoniyati bo'lgan davlatlar bunday imkoniyatga ega bo'lmagan davlatlarga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'rtacha 59% ko'p jalb qilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy omili geografik omil ekanligi ma'lum bo'ldi. Xususan, o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan ikki davlatni solishtirganda dengizga chiqish imkoniyati bo'lgan davlatlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni bunday imkoniyatga ega bo'lmagan davlatlarga nisbatan o'rtacha 59% ga ko'p jalb qilgan.

Xulosa qilib aytganda, dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakatlar uchun transport xarajatlari yuqoriroq ekanligi va kengroq bozorlarga kirish cheklanganligi sababli dengizga chiqish imkoniyati va uning mavjud emasligi koeffitsiyentlari nisbiy afzalliklarni aks ettiradi. Shunga qaramay, dengizga chiqish imkoniyati mavjud emasligining salbiy ta'sirini dengizga chiqish yo'li bilan yumshatish mumkinligi ham aniqlandi. Bu esa sohilbo'yi mamlakatlarida va dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan qirg'oqbo'yi mamlakatlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi MDH mintaqasida sezilarli darajada farq qilmasligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqiga (YeOII) a'zo bo'lishi O'zbekiston tashqi savdo ko'rsatkichlariga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganildi



56 SONIYA

O'zbekiston don va don mahsulotlari bo'yicha Armanistonga nisbatan, sabzavotlar, sabzavot ildizi va undan tayyorlangan mahsulotlar, konservalangan mahsulotlar bo'yicha Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Rossiya mamlakatlariga nisbatan qiyosiy ustunlikka egaligi aniqlandi.

O'zbekiston meva va yong'oqlar (yangi va quritilgan), ipak, mis va rux mahsulotlari bo'yicha YeOII mamlakatlari orasida eng yuqori ustunlikka ega.

Shuningdek, kiyim-kechak va aksessuarlar bo'yicha O'zbekistonning qiyosiy ustunligi Armaniston hamda Qirg'izistonnikidan biroz pastroq, poyabzallar bo'yicha esa qiyosiy ustunlik Qozog'istonga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Savdoni to'ldiruvchi indeks (ing. TCI) tahliliga ko'ra, birlamchi mahsulotlar (yoqilg'idan tashqari)

O'zbekiston eksporti YeOII mamlakatlari importiga to'la mos keladi. Shu bilan birgalikda, oziq-ovqat, choy, qahva, kakao va ziravorlardan tashqari boshqa asosiy mahsulotlarga Rossiyada talab kamayganiga qaramay, YeOII a'zo qolgan mamlakatlar ushbu mahsulotlarni yildan yilga ko'proq import qilmoqda.

O'zbekistonning YeOII mamlakatlariga pomidor, uzum, qovun, olma va o'rik mahsulotlari eksporti va importi tahlil qilindi. Qozog'istonning pomidor eksportida narxlarning oshishi O'zbekiston eksportini kamaytiradi, aksincha, Belarusdagi bunday holat esa O'zbekistonning eksport hajmini oshiradi. Belarusning uzum eksporti narxi O'zbekiston eksportiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, O'zbekiston, Belarus va Qozog'istonda narxlarning oshishi O'zbekiston qovun eksportiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, Belarusdan olma eksporti narxi O'zbekiston olma eksportiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi. O'rik narxining oshishi O'zbekistondan eksport hajmining pasayishiga olib kelishi mumkinligi ham aniqlandi.





O'zbekiston mahsulotlarini eksport qilish uchun yangi istiqbolli tashqi bozorlar



55 SONIYA

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishning yangi salohiyatli bozorlarini aniqlash asosiy masalalardan biri sifatida qayd etilgan.

Tahlil qilish uchun go4WorldBusiness xalqaro bozori ma'lumotlaridan foydalanildi. U 2022-yil aprel-iyul oylari uchun xalqaro yuk tashishlar haqidagi 3000 dan ortiq ma'lumotni qamrab oladi. Barcha ma'lumotlar veb-saytlarni qirqish usuli (veb-saytlardan ma'lumot yig'ishning avtomatlashtirilgan usuli) yordamida olindi.

Istiqbolli bozorlarni aniqlash metodologiyasi 3 bosqichdan iborat:

- go4WorldBusiness xalqaro bozori ma'lumotlar bazasidagi barcha mamlakatlar orasidan so'nggi 5 yil ichida mahsulot importi pasaygan davlatlar chiqarib tashlandi;
- O'zbekiston ushbu mahsulotlarni eksport qilayotgan davlatlar bundan mustasno;


- ushbu toifadagi tovarlar importi o'rtacha hajmining O'zbekistondan import qiluvchi mamlakatgacha bo'lgan geografik masofaga nisbati hisoblanib, indeksda eng yuqori o'rinda turgan, istiqbolli bozorga ega mamlakatlar tanlab olindi.

Tahlil quyidagi mamlakatlar istiqbolli bozorlar bo'lib xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatdi:

- don mahsulotlari - Yaponiya, Bangladesh;
- o'simlik yog'i - Hindiston, Xitoy, Bangladesh;
- metallar - Bangladesh;
- meva va sabzavotlar – Bangladesh, Singapur, O'mon;
- ziravorlar - Hindiston, Buyuk Britaniya, Bangladesh;
- to'qimachilik mahsulotlari - Hindiston, Bangladesh, Singapur.

Qayd etish joizki, aniqlangan istiqbolli bozorlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab yuqori. Shu munosabat bilan ma'lumotlarning qo'shimcha tahlili o'tkazilib, bunda mavsumiy omil mavjudligi aniqlandi, ya'ni xalqaro yuk tashuvlarining katta qismi yoz oylarida amalga oshirilgan va umumiy yuk tashuvlari sonining yarmidan ko'pini tashkil etgan.

Xalqaro yuk tashish sankey diagrammasi



Ijtimoiy soha

10%

O'zbekistonda qo'shimcha ta'limning har yili ish haqining o'rtacha 10% oshishiga imkoniyat yaratadi

6,3%

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar (6,3%), ayollar orasidagi ishsizlik (4%), kam ta'minlanganlar ulushining oshishi (1,2%), umr ko'rish davomiyligi (0,19%) tug'ilish darajasi oshishining asosiy omillari

7

O'zbekistonda keksa yoshdagi aholining demografik yuki mehnatga layoqatli har 100 kishiga 7 nafarni tashkil etadi. Bu jahondagi o'rtacha ko'rsatkichidan past va hatto 2035-yilgi prognozlarda ham umumjahon o'rtacha ko'rsatkichlaridan past bo'lishi kutilmoqda.

16%

Mamlakatda diplomatik vakolatxonaning mavjudligi mehnat muhojirlarining ketish ehtimolini 16% ga oshiradi.

O'zbek ayolining martabaga erishishi osonmi?

LAVOZIM



*SO'ROV NATIJALARI
**EKONOMETRIK TAHLIL NATIJALARI



O'zbek ayolining martabaga erishish imkoniyatlari



63 SONIYA

PMTI mutaxassisleri o'zbekistonlik ayollarning martabasi oshishi yo'lidagi asosiy muammolarni aniqlash maqsadida ishlaydigan ayollar o'rtasida so'rov o'tkazdi. So'rovda turli faoliyat sohaslarida ishlaydigan 300 nafar ayol (N=300) ishtirok etdi. So'rov joriy yilning oktyabr oyida o'tkazildi. Respondentlarning yoshi 16 yoshdan 65 yoshgacha, o'rtacha yoshi 36 yosh. So'rovda oliy ma'lumotli (68%), ilmiy darajaga ega (13,6%), o'rta maxsus (20,6%) va umumiy ma'lumotli (7%) ayollar ishtirok etdi. Respondentlardan 65,8% ining 2 va undan ortiq farzandi bor, 25%i turmush qurmagan yoki ajrashgan.

So'rov natijalari quyidagicha bo'ldi:

- respondentlarning deyarli 88%i ayollar ishlashi kerak, deb hisoblaydi;
- respondentlarning 68,4%i erkaklarga nisbatan ayollarning martabaga erishishi ancha qiyin, deb hisoblaydi;
- so'rovda qatnashganlarning 52,2% i turmush o'rtog'i ishlash uchun ruxsat berganini bildirgan;
- so'rovda qatnashganlarning 38,6% i martabaga erishishiga turmush o'rtog'i ruxsat bermasligini, 34,9% i jamiyat ayollarni faqat uy bekasi sifatida qabul qilishini, 27,9% i uy yumushlariga ayollar mas'ulligi to'siq bo'layotganini aytgan bo'lsa, 17,3% i to'siqlar yo'qligini ta'kidlagan;
- ayollar kuniga o'rtacha 4 soat vaqtini uy yumushlariga sarflasa, erkaklar bir soatdan kam sarflashi ma'lum bo'ldi (so'rovda ishtirok etgan

ayollarning fikriga ko'ra);

Ekonometrik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ayollarning ishlash yoki ishlamaslik ehtimoliga, birinchi navbatda, ularning oilaviy holati ta'sir qiladi. Bundan tashqari, oilaning farovonligi, ta'lim darajasi, qisman ayolning yoshi ham uning iqtisodiy faolligiga ta'sir qiladi. Shaharda yoki qishloqda yashashi, salomatligi, farzandlarning borligi (ma'lumotlar bazasida bolalari allaqachon 16 yoshga to'lgan ayollar ko'p) kabi omillar statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lib chiqdi.



Yuqori tug'ilish ko'rsatkichlarining sabablari va ularning ijtimoiy sohaga ta'siri



45 SONIYA

Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga mos ravishda oilalarning katta qismi (onalarning 82,9% i, turmush o'rtoqlarining 81,0% i) 3-4 nafar farzandi bo'lishini hohlaydi. Salomatligi (43,8%) hamda oilaviy sharoitining yaxshilanganligi (47,9%) farzandni dunyoga keltirishga qaror qilishdagi asosiy sabab sifatida ko'rsatilgan. Oilalarning 36,2% i umumiy holda yana farzandli bo'lishni istagan bo'lsada, 19,0% oilalar yana o'g'il farzandli, 14,3% i esa yana qiz farzandli bo'lish istagini bildirgan. Oilalarning 33,4% ida farzand kutilmaganda dunyoga kelgani aniqlandi.

Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, quyidagi omillar tug'ilish darajasining oshishiga olib kelar ekan: aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar (6,3%), ayollar orasidagi ishsizlik (4%), kam ta'minlanganlar ulushining oshishi (1,2%), umr ko'rish davomiyligi (0,19%).

Tug'ilish darajasining pasayishiga olib keluvchi omillar maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish (-0,02%) va ayollarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi (-0,04%) ekanligi ma'lum bo'ldi. Aytib o'tish joizki, mehnat muhojirlari soni, o'rtacha ish haqi, iqtisodiyotga kiritilayotgan jami investitsiyalar hajmi, YaHMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ulushi, abortlar, umumiy ishsizlik darajasi kabi omillarning ta'siri statistik ahamiyatga ega emasligi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, quyidagilar aniqlandi:
 - moliyaviy, kompyuterga ixtisoslashgan, kognitiv, mijozga yo'naltirilgan, xodimlarni boshqarish, ijtimoiy ko'nikmalar, rus, o'zbek va ingliz tillarini bilish muhim ahamiyatga ega.
 - moliyaviy (34%), hisoblash (8,6%), kognitiv (20%), mijozlarga yo'naltirilgan (21%), xodimlarni boshqarish (33%) va ingliz tilini bilish (25%) kabi ko'nikmalarga ega bo'lish olqishlanadi.



O'zbekistondagi ish beruvchilar orasida eng ko'p talab qilinadigan ko'nikmalarni aniqlash



- bo'sh ish o'rinlarining 28% ida ijtimoiy ko'nikmalar, ya'ni jamoada ishlash, muzokaralar olib borish, yaxshi nutq, muloqot, omma oldida taqdimot qilish qobiliyatlari talab etilishi ma'lum bo'ldi;
- vakansiyalarning 18,3% ida chet tillarini (asosan ingliz tilini) bilish talabi ko'rsatilgan;
- vakansiyalarning 15,2% ida shaxsiy ko'nikmalar, ya'ni mas'uliyat, stressga chidamlilik, ijodkorlik, motivatsiya, yetakchilik fazilatlarini talab etilmoqda, shuningdek, kompyuter savodxonligi ham eng ko'p talab qilinuvchi ko'nikma ekanligi ma'lum bo'ldi (bo'sh ish o'rinlarining 12,5% ida so'ralgan)
- bo'sh ish o'rinlarining 86% ida ish qidiruvchilardan kamida bir yillik ish stajiga ega bo'lish talab qilingan;
- bo'sh ish o'rinlarining 11,3% ida oliy ma'lumotli bo'lish so'ralgan.



Mehnat bozorining hududiy indeksi (MBI) hisoblab chiqildi



Mehnat bozori indeksi mehnat bozoridagi holatni baholash va monitoring qilishda yordam beruvchi indeks bo'lib, mehnat bozorining joriy holatini bevosita aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Mehnat bozori indeksini hisoblash natijalariga ko'ra hududlar uch guruhga bo'lindi: yuqori, o'rta va past.

2021-yil yakunlariga ko'ra, indeks qiymati yuqori bo'lgan guruhga Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlari kirdi. Ularda ishsizlik darajasi respublika miqyosidagi o'rtacha ko'rsatkich (9,6%)dan ham pastroq, taklif etilayotgan bo'sh ish o'rinlari soni rezyumelar soniga nisbatan ko'proq, o'rtacha oylik maosh ham nisbatan yuqoriroq.

O'rta guruhdan joy olgan Andijon, Buxoro, Samarqand, Namangan, Sirdaryo, Farg'ona, Xorazm va Jizzax viloyatlarida o'rtacha oylik

Head Hunter kompaniyasi saytida so'ralayotgan ko'nikmalar



maosh respublika miqyosidagi o'rtacha ko'rsatkichning 80% idan kam emas. Bitta bo'sh ish o'rniga o'rta hisobda 2,2 ta rezyume to'g'ri keladi. Ishsizlik darajasi 10% dan oshmaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari indeks qiymati past bo'lgan hududlar ekanligi ma'lum bo'ldi. Ularda eng yuqori konsentratsiya koeffitsiyenti kuzatildi.



Global keksayish muammosiga oid tahlil



Keksa aholining demografik yuki rivojlangan mamlakatlarda o'sib bormoqda. Eng yuqori ko'rsatkichlar Yaponiya va Yevropada kuzatilmogda.

Aholining qarishi iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida, xususan, sog'liqni saqlash tizimda kadrlar yetishmasligiga olib kelmoqda. Empirik hisob-kitoblar qariyalar ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarga muhojirlar oqimi qariyalarning qaramlik yukini 2,4% ga kamayishiga, shuningdek, YalMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ulushi 4,6%ga o'sishiga olib kelishini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda keksa yoshdagi aholining demografik yuki mehnatga layoqatli har 100 kishiga 7 nafarni tashkil etadi. Bu jahondagi o'rtacha ko'rsatkichidan past va hatto 2035-yilgi prognozlarida ham umumjahon o'rtacha ko'rsatkichlaridan past bo'lishi kutilmoqda. O'zbekiston demografik dividend olish bo'sag'asida turibdi va jahon mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash uchun yaxshi salohiyatga ega. Demografik inqirozga uchragan mamlakatlarda vaziyat yanada og'irlashishi kutilmoqda va bu davlatlar tomonidan bir qator tizimli choralarning qo'llanilishi (kasb-hunar ta'limi, til o'zlashtirish, salomatlik va xavfsiz mehnat sharoitlari bilan bog'liq qulay sharoitlar yaratish, h.k.) kelajakda bu davlatlarga malakali kadrlarni jalb qilishda raqobatdosh ustunlik berishi mumkin.



O'zbekistonlik mehnat muhojirlari uchun yangi yo'nalishlar aniqlandi



30 SONIYA



Gravitatsion model natijalariga ko'ra:

1. Ingliz tilini bilish, diplomatik vakolatxonaning mavjudligi, aviachiptalar narxi, shuningdek, borayotgan mamlakatda YalMning aholi jon boshiga ulushi mehnat muhojirligi uchun muhim omillar ekanligi ma'lum bo'ldi.
 2. Donor mamlakatda diplomatik vakolatxonaning mavjudligi mehnat muhojirlarining ketishini 16% ga oshiradi.
 3. Donor mamlakatlardagi ingliz tilini bilish talabi O'zbekistondan ketayotgan mehnat muhojirlari oqimini 55% ga kamaytiradi.
- Imkoniyat 8% dan 80% gacha bo'lgan Polsha, Bolgariya, Litva, Chexiya, Fransiya, Germaniya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar o'zbekistonlik mehnat muhojirlari uchun eng maqbul yo'nalishlar bo'lishi mumkin.

Singapur, Saudiya Arabistoni va Yaponiya kabi mamlakatlar 4% dan 49% gacha imkoniyatga ega. Ozarbayjon va Belarus Respublikasi MDH mamlakatlari orasida eng katta imkoniyatga ega ekanligi ma'lum bo'ldi.



Mintaqalar bo'yicha keksalarning mehnatga layoqatli aholiga demografik bosimi (65+ yoshdagi fuqarolarning 15-64 yosh oralig'idagi har 100 kishiga nisbati)





4 kunlik ish haftasini qo'llash mumkin bo'lgan sohalar



27 SONIYA

Tadqiqot davomida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanildi. Korrelyatsion tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, bir soatlik ish vaqtiga to'g'ri keladigan YaIM hamda haftalik ish soatlari (0,027) o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q. Ushbu ko'rsatkich odamlar haftasiga 35 soat yoki undan kam ishlaydigan mamlakatlarda ham, haftasiga 40 soat yoki undan ko'proq ishlaydigan mamlakatlarda ham o'zaro bog'liq emas.

Hisob-kitoblar O'zbekiston iqtisodiyotida mehnat unumdorligi va ish soatlari o'rtasida yuqori bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi.

PMTI ekspertlarining fikricha, ta'lim, sog'liqni saqlash (ayrim tarmoqlari), ilmiy faoliyat sohalar, axborot texnologiyalari va bank sohasida 4 kunlik ish haftasiga o'tish imkoniyatlari mavjud. ■



Qaysi kasbni tanlash kerak?



33 SONIYA

Sanoat:


- sanoat korxonalarida har yili muhandis-texnologlar uchun 150 mingta ish o'rne yaratiladi;
- eng ko'p ish o'rinlari Navoiy, Toshkent, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida tashkil etiladi.

Qishloq xo'jaligi:

- qishloq xo'jaligida yiliga 35 mingga yaqin yangi ish o'rne tashkil etiladi;
- eng ko'p ish o'rinlari Sirdaryo, Jizzax va Surxondaryo kabi viloyatlarda yaratiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasi:

- xizmat ko'rsatish sohasida har yili 250 mingta yangi ish o'rne yaratiladi;
- ushbu sohada malakali shifokorlar, o'qituvchilar, farmakologlar, dasturchilar, marketologlar, va quruvchilarga talab yuqori bo'lishi kutilmoqda;
- eng ko'p ish o'rinlari Toshkent shahri, Namangan, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida tashkil etiladi. Ushbu hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun matematik prognozlash usullaridan (Random effects model) foydalanildi. Talab tomonidan har bir tarmoqda ishlab chiqarish hajmi, taklif tomonida esa aholining umumiy bandligi qo'llanildi. ■





Ta'lim darajasi ish haqiga qanday ta'sir qiladi?



69 SONIYA

O'zbekistonda ish haqidagi ustama:

- fan doktori (yoki DSc) ilmiy unvoni uchun 61% dan yuqori;
- PhD yoki fan nomzodi uchun 41% dan yuqori;
- bakalavr bosqichining imtiyozli diplomiga ega xodimlar mehnat bozorida oddiy diplom sohiblariga qaraganda 8,5% ko'proq maosh oladi.

Ushbu tadqiqot yuqori ta'lim darajasiga ega bo'lish uchun sarflangan vaqt va kuch o'zini oqlanishini tasdiqladi.

O'zbekistonda har bir qo'shimcha ta'lim yili ish haqining o'rtacha 10% oshishiga imkoniyat yaratadi va bu ko'rsatkich BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti - YUNESKO ning bahosiga mos keladi: «Butun dunyo bo'yicha, 139 ta davlatda daromadlilik me'yori ta'limning har bir qo'shimcha yiliga 10% ni tashkil qiladi».

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kompyuter texnologiyalari sohasida band bo'lganlarning o'rtacha oylik maoshi eng yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi. Ular (ta'lim darajasi va uning davomiyligiga qarab) boshqa tarmoqlarda band bo'lganlarga nisbatan 28% dan 37% gacha ko'proq ish haqi oladi. Iqtisodchilar 24-37%, moliyachilar 29-30%, professional va ilmiy-texnik faoliyat (yuridik, konsalting, buxgalteriya va professional xizmatlar) bilan shug'ullanuvchilarning o'rtacha oylik maoshi 27-38% ko'p ekanligi oydinlashdi. Davlat boshqaruvi va mudofaa yo'nalishlarida band bo'lganlar o'z mehnati evaziga 25-31% ko'proq maosh oladi. Sanoat tarmog'i vakillari 22-24%, qurilish sohasi vakillari esa 25% ko'p ish haqi olishi aniqlandi.

Umuman, iqtisodiyotda erkaklarning maoshi ayollarnikiga nisbatan 23% dan 28% gacha yuqori. Shu bilan birga har bir qo'shimcha ta'lim yili ayollarning daromadini 11% ga, erkaklarnikini 8,7% ga oshiradi. Oilali erkaklar bo'ydoqlarga nisbatan 16% ko'proq maosh olsa, turmush qurganidan so'ng ayollarning maoshi 27% ga kamayishi kuzatiladi. Poytaxtimiz mehnat bozorida band bo'lganlarning ish haqi boshqa hududlardagi ish haqiga nisbatan 23-24% (erkaklarda 30%, ayollarda 16,3%) yuqoriroq.



Ta'lim tizimiga davlat investitsiyalarining kiritilishi qashshoqlikni kamaytirishga qanday ta'sir qiladi?




30 SONIYA

Davlat tomonidan ta'lim tizimi uchun ajratilayotgan mablag'larning 1% ga ortishi kambag'allikni 0,03% ga qisqartirish imkonini beradi. Shu bilan birga, YalMning o'sishi, savdosotiq hamda yalpi kapital qo'yilmalarning oshishi, inflyatsiyaning pasayishi kabi omillar kambag'allik darajasi bilan teskari aloqaga ega.

2020-yilda tadqiq etilgan mamlakatlarda ta'lim tizimi uchun sarflangan xarajatlarning YalMga nisbatan o'rtacha ulushi 4,11% ni, O'zbekistonda esa 4,9% ni tashkil etgan.

O'zbekistonda oxirgi yillarda ta'limning barcha bosqichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, aholining mos yoshdagi qatlamlarini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish 38,2% ga (2016-yildagi 23,8% dan 2021-yilda 62% gacha), umumiy o'rta ta'lim bilan 0,9% ga (2016 yildagi 96,9% dan 2021-yilda 97,8% ga), oliy ta'lim bilan 29% ga (2016-yildagi 9% dan 2021-yilda 38% ga) o'sdi.

O'rtacha ta'lim yili davomiyligi va o'rtacha oylik maoshi



Uy joy bozori tahlili

> 1 000 AQSH dollari

2022-yilning noyabr oyida Toshkent shahrida uy-joyning 1 kv. metri narxi 1000 AQSH dollaridan oshdi.

10%

Ijara biznesining daromadlilikigi (rental yields - uyni ijaraga berish orqali bir yilda olinadigan daromad) poytaxt uchun 10 foizni tashkil etadi.

50 barobar

Toshkent shahri markazidagi xonadonning o'rtacha narxi YaIMning kishi boshiga to'g'ri keladigan ulushidan (price/GDP per capita ratio) 50 barobar ko'p.

7,6 trln. so'm

2022-yilning yanvar-iyul oylarida 41,4 mingdan ortiq fuqaroga jami 7,6 trillion so'm ipoteka krediti ajratildi.



Toshkent shahri tumanlaridagi ko'p qavatli uylarda ijara narxi tahlili



Toshkentda ko'p qavatli uylardagi o'rtacha ijara narxi 339 AQSH dollariga teng. Ijara narxlari bo'yicha eng past narx Sergeli va Olmazor tumanlarida, eng baland narx esa Mirobod va Yakkasaroy tumanlarida qayd etilgan.

Poytaxtda o'rtacha ijara narxi 339 dollarga teng. Ijara narxlari bo'yicha eng past narx Sergeli va Olmazor tumanlarida, eng baland narx esa Mirobod va Yakkasaroy tumanlarida qayd etilgan.

Ijara biznesining daromadlilik (rental yields - uyni ijaraga berish orqali bir yilda olinadigan daromad) Toshkent shahri uchun 10% ni tashkil etadi. Taqqoslash uchun, bu raqam Ruminiyada 6% ni, Polshada 5% ni, Germaniyada 3% ni, Turkiyada esa 2% ni tashkil etadi. Hozir Toshkentda ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromad o'rtacha bank valyuta depozitlari tushumidan (3,4%) uch baravar ko'proq. Bu esa jamg'armalarni ko'chmas mulkka sarflash va uni ijaraga berish valyutada depozit ko'rinishida saqlashdan ko'ra foydaliroq ekanligini ko'rsatadi.

Xonadon va ijara narxi nisbati (price/rent ratio) ko'rsatkichi Toshkent uchun 10 yilni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Turkiyada 52 yilga, Germaniyada 34 yilga, Polshada 18 yilga, Ruminiyada 17 yilga teng. Demak, Toshkentda shaxsiy uyga egalik qilish ijarada turishga qaraganda arzonroq. Bu esa tabiiy ravishda odamlarda ijarada turishdan ko'ra o'z uyiga ega bo'lish istagini kuchaytiradi.

Toshkent shahri markazidagi xonadonning o'rtacha narxi YalMning kishi boshiga to'g'ri keladigan ulushidan (price/GDP per capita ratio) 50 barobar ko'p. Bu ko'rsatkich Ukrainada 158 barobar, Rossiyada 87 barobar, Buyuk Britaniyada 66 barobar, Shveysariyada

20 barobar, Germaniyada 17 barobar, Luksemburgda 5 barobarni tashkil etadi. Bu umumiy hisobda odamlarning xarid qobiliyati past yoki yuqoriligini ko'rsatadi.

The Economist nashrining ma'lum qilishicha, uyga egalik qilish ko'rsatkichi qanchalik yuqori bo'lsa, uy bozorida narxlar shunchalik o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, Shveysariyada uyga egalik qiluvchilar ulushi 3%, Buyuk Britaniyada 60% atrofida. Shunga mos ravishda Shveysariyada uy narxlari 1970-yildan 2019-yilgacha 70% ga, Buyuk Britaniyada esa 346% ga oshgan.

Bundan tashqari, ijarada turish ko'rsatkichining oshishi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ham ta'sir etadi. Masalan, AQSHda uyga egalik qilish ko'rsatkichi oshgani sayin ishsizlik darajasi ham oshgan. Bu bir tomondan odamlarda boshqa joyga ko'chish xohishi yo'qolishi, ikkinchi tomondan esa ish o'rinlari mavjud joylarga ko'chib o'tish qimmatlashishi bilan bog'liq.


Mutaxassislarning xulosa qilishicha, Toshkent shahrida xonadon ijarasi bozori shakllanishning boshlang'ich bosqichida turibdi.

Urbanizatsiya jarayonining jadallashib borayotganini inobatga olib, ijara bozorini rivojlantirish uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- ijarada turuvchilarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilishning qonuniy asoslarini yanada mustahkamlash;
- ijara narxlari keskin o'zgarishini nazorat qilish (misol uchun Germaniya tajribasi kabi, ijara narxini shahar bo'yicha o'rtacha narxdan sababsiz keskin 10 foizdan ko'proqqa oshira olmaslikni qonunan belgilash);
- bozorda informatsion asimmetriya muammosining oldini olish maqsadida uy egasi va potensial ijarachini to'g'ridan to'g'ri bog'laydigan informatsion texnologiyalarni keng joriy etish.



Xonadonlarning o'rtacha ijara narxлари (iyul-avgust)



*Kuzatuvlar soni kam va boshqa omillar (qavat, mebel va shu kabilar ta'sir ko'rsatgan).
N/A - kuzatuvlar aniqlanmagan.


Xonadonlarning o'rtacha narxi va YalMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ulushi nisbati



Ijara biznesining daromadliligi (%)



Xonadon va ijara narxi nisbati (yil)





2022-yilning noyabr oyi uchun Toshkent shahrida uy narxlari o'zgarishi tahlili



Toshkent shahrida uy-joyga bo'lgan talabning oshishini, bir tomondan, yashash uchun ijtimoiy infratuzilmaning nisbatan yaxshiroqligi bilan izohlash mumkin.

Uy bozorida narxlar oshib borayotgan bir sharoitda aholini uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari ko'lamining kengaytirilishi uy bozorida faollikning saqlanib qolayotganiga asosiy sabab bo'lmoqda. 2022-yilning 9 oyida banklar tomonidan aholiga 10,3 trln so'm miqdorida ipoteka kreditlari ajratildi. Bu esa 2021-yilning mos davridagiga nisbatan 68% ko'p.

O'zbekiston Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi (O'zIQMK) ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilning 4-choragidan 2022-yilning 3-choragigacha bo'lgan davrda berilgan ipoteka kreditlarining 73,1% i Moliya vazirligi mablag'lari hisobidan, 16,8% i banklarning o'z mablag'lari hisobidan, va 10,1% i O'zIQMK mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan.

Toshkent shahrida uy-joy narxlarining tez sur'atlarda o'sishi mazkur bozorning spekulyativ xususiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Talab nuqtayi nazaridan, farzandlar soni, daromad va migratsiya omillaridan faktorlaridan tashqari, uy narxlarining oshib borayotganligi aholi jamg'armalarini investitsiyalarga yo'naltirish bo'yicha moliyaviy instrumentlarning cheklanganligidan dalolat beradi. Ya'ni, mamlakatimizda kapital bozorining rivojlanmaganligi uzoq muddatli jamg'armalarga ega aholi qatlamining ortiqcha mablag'larini uy-joy uchun investitsiya sifatida yo'naltirishga sabab bo'lmoqda.

2022-yilning noyabr oyida Toshkent shahrida uy-joyning 1 kv. metri narxi 1000 AQSH dollaridan oshgan.


2022-yilning noyabr oyida Toshkent shahri bo'yicha uy savdosi o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan o'rtacha 8% ga (7814 dan 8408ga) oshgan.

Mazkur davrda uy-joyning 1 kv. metri uchun narxlar o'rtacha 27% ga oshgan, ya'ni ushbu ko'rsatkich 2021-yil noyabrda 849 dollar bo'lgan bo'lsa, 2022-yil noyabrda 1078 dollarga yetgan.

Toshkent shahrining ayrim hududlarida 1 kv metr uchun uy narxlari o'rtacha ko'rsatkichdan (1078 dollar) sezilarli darajada yuqori hisoblanadi, xususan, Mirobod tumanida - 1285 dollar (+20%), Yakkasaroy tumanida - 1178 dollar (+9%), Shayxontohur tumanida - 1144 dollar (+6%), Mirzo-Ulug'bek tumanida - 1137 dollar (+6%), Yunusobod tumanida - 1117 dollar (+4%).

Ma'lumot uchun: 2022-yilning 9 oyida Toshkent shahri bo'yicha o'rtacha ish haqi 5,9 million so'mga yetib, 2021-yilning mos davridagiga nisbatan 32,5% ga o'sgan. Ushbu davrda yillik inflyatsiya darajasi 12,2% ni tashkil etgani hisobga olinsa, real ish haqi daromadlari 20,3% ga oshgan. Ushbu davrda so'mning 1 AQSH dollariga nisbatan almashinuv kursi 10672,30 so'mdan 10973,39 so'mga (2,8%) o'zgartirildi.

2022-yilning noyabr oyida o'rtacha ta'mirlangan 2 xonali uy narxi o'rtacha hisobda 55,7 ming dollarni tashkil etdi (2021-noyabrda - 41,6 ming dollar).



Axborot kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiyotga qanday yo'llar bilan ta'sir o'tkazadi?

Optik tolali internet uzunligining 100 kilometr ga ortishi:

1,43%

Aholi real daromadlarining 1,43 % o'sishiga olib keladi.

0,04 f.p.

Ishsizlikning 0,04 f.p. ga qisqarishida yordam beradi.

0,09 f.p.

Kambag'allik darajasini 2 yildan so'ng 0,09 f.p.ga pasaytiradi.

6,96

O'zbekistonda AKTning rivojlanish indeksi 2015-yildagi 6,04 dan 2021-yilda 6,96 ga ko'tarildi.

59,9

2015-2021 yillarda O'zbekistonning frilans bozoriga kirish uchun tayyorlik indeksi 43,9 dan 59,9 gacha ko'tarildi.





AKT va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar



75 SONIYA

So'nggi bir necha o'n yillik davomida butun dunyoda AKT xizmatlari jadal sur'atlar bilan o'sdi. 2020-yilda global AKT xarajatlari taxminan 4,9 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga borib, bu ko'rsatkich 5,8 trillion dollargacha oshishi kutilmoqda.

Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi (International Telecommunication Union – ITU) ning 2021-yildagi hisobotiga ko'ra, pandemiya davrida internetning tarqalishi tezlashgan. Agar 2019-yilda 4,1 milliard kishi (yer yuzi aholisining 54 foizi) internetdan foydalangan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 4,9 milliard kishiga (dunyo aholisining 63 foizi) yetdi.

AKTning O'zbekistonda aholi real daromadlarining o'sishi, ishsizlik va kambag'allik darajasining qisqarishiga ta'sirini tahlil qilish uchun PMTI mutaxassislari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2015-2020 yillardagi (84 ta kuzatuv) hududlar bo'yicha (12 ta viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri) statistik ma'lumotlariga asoslangan ekonometrik modellardan foydalandi.

Optik tolali aloqa liniyalari uzunligining 100 kilometr ga ortishi:


1. Aholi real daromadlarining 1,43 foizga o'sishiga olib keladi.
2. Ishsizlik darajasining 0,04 f.p. ga qisqarishiga yordam beradi.
3. Kambag'allik darajasini bir yildan so'ng 0,06 foiz punktiga, ikki yildan keyin esa 0,09 foiz punktiga pasaytiradi.

Internetdan foydalanuvchilar sonining 1 foiz punktiga ortishi:

1. Aholi real daromadlarining 0,9 foizga oshishiga olib keladi.
2. Ishsizlikni 0,02 f.p. ga kamaytiradi.
3. Ikki yildan so'ng kambag'allik darajasini 0,02 foiz punktiga qisqartiradi. Ushbu natija bir yildan so'ng olingan natijadan jiddiy farq qilmaydi.


So'nggi yillarda O'zbekistonda AKT sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunday qilib, 2019-2021 yillarda simli Internet orqali axborot uzatish tezligi deyarli ikki baravar oshdi (40 Mbit / s gacha) va aholining 70 foizdan ortig'i internetdan foydalanuvchilarga aylandi.

Optik tolali aloqa liniyalarining uzunligi va internetdan foydalanuvchilar soni dinamikasi



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Aholi real daromadlari, ishsizlik va kambag'allik darajasi dinamikasi



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

*2021 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida kam ta'minlanganlik darajasi o'rniga yangi metodologiyaga asoslangan (Jahon Banki bilan hamkorlikda) kambag'allik indeksi kiritildi



AKTning O'zbekiston hududlari bo'yicha rivojlanish indeksi



O'zbekistonning frilans bozoriga kirish imkoniyatlari



PMTI ekspertlari AKTning rivojlanish indeksi asosida O'zbekiston hududlarining reytingini tuzdi. Tahlil davomida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. O'zbekiston bo'yicha indeksning o'rtacha qiymati 2015-yildagi 6,04 dan 2021-yilda 6,96 ga ko'tarildi.

2. 2021-yilda kuchli uchlikka Toshkent (indeks qiymati 9,28), Navoiy (7,41) va Buxoro (7,06) viloyatlari kirdi.

3. O'rganish davrida indeksning eng katta o'sishi Xorazm (+1,20), Qashqadaryo (+1,18), Namangan (+1,15) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (+1,12) qayd etildi.

Indeks uchta asosiy guruhdan iborat: AKTdan foydalanish imkoniyati, AKTdan foydalanish darajasi va AKTdan foydalanish ko'nikmalari. Guruhlar va ko'rsatkichlarning salmog'i IDI ni hisoblash metodologiyasiga qat'iy mos keladi. Ikkala guruh va ko'rsatkichlar bo'yicha salmoqlar yig'indisi 1 ga teng.

Tadqiqot davomida 2015-2021 yillarda O'zbekistonning frilans bozoriga kirish uchun tayyorlik indeksi hisoblab chiqildi va quyidagi asosiy natijalar olindi:


1. Tadqiq etilayotgan davrda indeks qiymati 43,9 dan 59,9 gacha ko'tarildi.

2. Bu vaqt oralig'ida infratuzilmalarning rivojlanish ko'rsatkichi 38,0 dan 64,2 gacha ko'tarildi va u indeksning ortishiga eng katta hissa qo'shdi.

3. Eng katta o'sish ma'lumotlarni uzatish xalqaro tarmog'ining o'tkazuvchanlik imkoniyati (74,7 marotaba) va masofaviy bank xizmatlari tizimlaridan foydalanuvchilar (jismoniy shaxslar) soni (20,2 marotaba) kabi ko'rsatkichlar bo'yicha qayd etildi.

O'zbekistonning frilans bozoriga kirish uchun tayyorlik darajasiga oliy ta'lim bilan qamrab olish (3,8 marotaba), internetdan foydalanuvchilar soni (2,4 marotaba) kabi ko'rsatkichlarning ortishi, provayderlar uchun internet-xizmatlar (tashqi kanal) uchun tariflar qiymati ko'rsatkichining pasayishi (86,4 marotaba) ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

O'zbekistonning frilans bozoriga kirish uchun tayyorlik indeksi dinamikasi



O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot istiqbollari

O'zbekistondagi barcha avtotransport vositalari elektr energiyasida harakatlansa, CO₂ miqdori qanchaga kamayadi?

Transchegaraviy uglerod solig'i O'zbekiston eksportiga qanday ta'sir qiladi?

O'zbekistonda oziq-ovqat chiqindilaridan bioyoqilg'i ishlab chiqarish imkoniyatlari qanday?

O'zbekistonda go'sht yetishtirish natijasida havoga qancha CO₂ chiqariladi?





“Yashil” avtotransport haqiqatan ham CO2 emissiyasini kamaytira oladimi?



Yonilg'ida harakatlanuvchi avtotransport vositalari havoga chiqarayotgan CO2 miqdori hisoblab chiqildi va u mazkur transport vositalari elektr energiyasida harakatlengandagi holat bilan solishtirildi.

Elektr transport vositalaridan foydalanish jarayonida ajralib chiquvchi CO2 miqdori nolga teng bo'lgani bilan, elektr energiyasini ishlab chiqarishda hosil bo'luvchi uglerod dioksidini nazardan chetda qoldirmaslik lozim.*

PMTI mutaxassislar respublika hududida benzin va dizel yonilg'isi asosida harakatlanuvchi avtotransport vositalari tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan CO2 miqdorini aniqlashga qaratilgan tadqiqot o'tkazdi. Ma'lum bo'lishicha, 2020-yilda bunday avtotransport vositalari chiqargan zararli gazlar emissiyasi 7,69 million tonnaga teng bo'lgan. Mazkur transport vositalari elektr energiyasi vositasida harakatlenganda taqdirda, emissiya hajmi 35,11% kam bo'lardi.

Agar mamlakatdagi dizel va benzin vositasida harakatlanayotgan barcha avtotransport vositalari elektr energiyasi yordamida harakatlansa, bir yilda qo'shimcha 9 382,3 mln. kVt-s elektr quvvatiga ehtiyoj yuzaga keladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asosan 2020-yil yakuniga ko'ra, respublika elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasining umumiy hajmi 66 500 mln. kVt-soatni, iste'mol hajmi esa 69 021,1 mln kVt-soatni tashkil etgan. Bu esa qo'shimcha ishlab chiqarish quvvatlariga ehtiyoj borligini anglatadi.



Elektromobillar bozorining umumiy ko'rinishi: global tendensiyalar va rivojlanish istiqbollari



So'nggi 10 yilda jahon bozorida elektr transport vositalarining savdosi 50 baravardan ko'proqqa oshdi. Natijada elektromobillarning jahon avtomobil bozoridagi ulushi 0,2 foizdan 8,3 foizga yetdi.

Jahondagi barcha turdagi elektr transport vositalari savdosining taxminan 90% i Xitoy, Yevropa va AQShga to'g'ri keladi. Bu mamlakatlarning jahon bozorida yetakchi o'rinlarini saqlab qolishi “yashil” transportni rivojlantirish bo'yicha “ekologik” dasturlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bilan bog'liq.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda elektr transport vositalari savdosi faollashdi va ularning yangi avtomobillar bozoridagi ulushi 0,4% ga yetdi. 2021-yilda elektr transport vositalarining 90% i Xitoydan import qilingan. 2022-yilning birinchi yarmida elektromobillar importi 2021-yilning shu davridagiga nisbatan 4,5 barobar o'sdi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatdiki, elektromobillar bozorini rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan e'tibor talab qiladigan asosiy chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- A) infratuzilmani yaratish bo'yicha chora-tadbirlar: tez zaryadlash stansiyalarini shahar va shahar tashqarisidagi yo'l muhitiga samarali integratsiyalash;
- B) yangi zaryadlash texnologiyalarini ishlab chiqishda ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish va boshqalar.


Elektromobil va oddiy avtomobil

Avtomobilingiz CO₂ emissiyasini hisoblang!

Avtomobil rusumi

Kunlik o'rtacha masofa (km)

Kunlik CO2 emissiyasi (kg)



Manba: Muallif hisob-kitoblari

C) elektr transport vositalarini sotib olishni rag'batlantirish:

D) iste'mol kreditlari dasturlari, ekologik bonuslar va boshqalar;

E) ekologik standartlarni joriy etishning aniq mexanizmini ishlab chiqish chora-tadbirlari.

Global miqyosda o'n yillik oxiriga borib, avtomobillar savdosida elektromobillarning ulushi 30-40% ga yetishi mumkin. O'zbekiston, 2030-yilga qadar elektromobillar bozorini rivojlantirish bo'yicha ko'rsatkichini 15% gacha yetkazishni maqsad qilgan. Buning uchun mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda rag'batlantirish bo'yicha bir qator mexanizmlarni joriy etish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston jahondagi tendensiylarga muvofiq, global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashga o'z hissasini qo'shmoqda. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha o'tkazilgan xalqaro forumda (2022) respublika 2030-yilga borib, metan emissiyasini 2020-yil darajasiga nisbatan kamida 30% ga kamaytirish bo'yicha havoga metan gazini chiqarishni qisqartirish bo'yicha global majburiyatlar (Global Methane Pledge) tashabbusiga qo'shildi. Ushbu maqsadlarga erishishda mamlakatimizda elektr transport vositalarining milliy bozorini faol rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.



O'zbekistonda oziq-ovqat chiqindilaridan bioyonilg'i ishlab chiqarish imkoniyatlari



Agar oziq-ovqat chiqindilari to'liq bioetanol (E100) yoki biodizel (B100) ga aylantirilsa, bioyoqilg'i ishlab chiqarish hajmi mos ravishda 1,11 milliard litr va 1,02 milliard litrni tashkil qiladi.

Benzin va dizel yonilg'isida harakatlanuvchi avtomobillarda bioyonilg'idan foydalanish CO2 chiqindilarini 1,6 million tonnaga kamaytirishda yordam beradi (21% ga).


Oziq-ovqat chiqindilarining har bir kilogrammi yiliga o'rtacha 2,5 kg karbon dioksidi ajratib chiqaradi. 3 million tonna oziq-ovqat chiqindisi o'rnatilgan tartibda utilizatsiya qilinmasa, 7,5 million tonna issiqxona gazlarini chiqaradi.

Bioyonilg'i – bu to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita biomassadan olinadigan yonilg'i. Bioetanol va biodizel bugungi kunda eng keng tarqalgan bioyonilg'i turlaridir.

O'zbekistonda har yili qariyb 3 million tonna oziq-ovqat chiqindilari hosil bo'ladi.

Oziq – ovqat chiqindilaridan bioyonilg'i ishlab chiqarish bir vaqtning o'zida parallel ravishda ikkita muammoni hal qilishda yordam beradi.

2018-2021-yillarda O'zbekistonda import qilinadigan elektr transport vositalarining umumiy avtomobillar importidagi ulushi.



Manba: Muallif hisob-kitoblari

Birinchidan, oziq-ovqat chiqindilarini utilizatsiya qilish orqali ekologiyaga salbiy ta'sir kamaytiriladi. Ikkinchidan, iqtisodiy va demografik o'sish natijasida tobora ortib borayotgan energiya resurslariga bo'lgan ehtiyoj qondiriladi.

Bioyonilg'i Yevropa, AQSHda va boshqa ko'plab mamlakatlarda yonilg'i sifatida ishlatiladi. AQSHda taxmiman 97% benzin tarkibida ma'lum miqdorda etanol mavjud. Braziliyada sotiladigan barcha benzin markalarida 20-25% gacha etanol mavjud.

Bioyoqilg'idan foydalanishni joriy etish 2019-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasining muayyan parametrlarini, O'zbekiston Respublikasining «Chiqindilar to'g'risida»gi qonunini, O'zbekiston Respublikasining Parij bitimini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi qonunini, shuningdek, BMT konferensiyasining 26-sessiyasida YAIM birligiga issiqxona gazlari chiqindilarini 2010 yilga nisbatan 35% ga kamaytirish bo'yicha qabul qilingan qo'shimcha majburiyatni amalga oshirishga imkon beradi.



“Yashil” moliyalashtirish vositalari tahlil qilindi



65 SONIYA

O'zbekistonda “yashil” moliyalashtirish faolligining ortishi qayd etilmoqda. Agar u ilgari xalqaro moliya institutlarining alohida loyihalari va grantlari ko'rinishida taqdim etilgan bo'lsa,

so'nggi yillarda moliyalashtirishning “yashil” kreditlar va obligatsiyalar kabi boshqa vositalari ham tatbiq etildi.

Shunday qilib, 2021-yilda “O'zsanoatqurilishbank” Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) bilan uning “yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi (Green Economy Financing Facility) dasturida ishtirok etish bo'yicha bitim tuzdi. Unda YETTB ning 25 million dollargacha bo'lgan miqdorda, Xalqaro moliya korporatsiyasining esa iqlim o'zgarishi bilan bog'liq sa'y-harakatlarni moliyalashtirishga qaratilgan 37,5 million dollar kredit liniyasini ajratishi ko'zda tutilgan.

Respublika hukumati MDH doirasida birinchi va dunyoda birinchilardan bo'lib Barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirishga qaratilgan davlat obligatsiyalari - Sovereign SDG Bonds ni joylashtirdi.

Hajmi 2,5 trillion so'mni (235 million AQSH dollari atrofida) tashkil qiluvchi 14% li ushbu obligatsiyalar 3 yil muddatga chiqarildi. Olingan mablag'lar milliy barqaror rivojlanish maqsadiga erishishni ko'zda tutuvchi 9 ta tadbir va loyihalarni amalga oshirish uchun yo'naltiriladi. Ularning orasida “yashil” taraqqiyot maqsadlari ham bor.

“Yashil” vositalar sezilarli darajada xilma xil ekanligi bilan farqlanadi. Bu esa korxonalariga investitsiyalarni davlat ishtirokisiz jalb qilish, “yashil” faoliyatdan moliyaviy foyda olish va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish (bartaraf etish) imkonini beradi.





O'zbekiston daryolarining "yashil" elektr energiyasi: ta'sir etish omillari va rivojlanishi



Energetika muammosi butun insoniyat uchun eng dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Neft, gaz va boshqa foydali qazilmalar qazib olish va tashish xarajatlarining oshib borishi va ekologik muammolarni keltirib chiqarishi oqibatida asta-sekin o'z ahamiyatini yo'qotmoqda.

Tabiiy resurslar cheklangan bugungi sharoitda, tez o'sib borayotgan ehtiyojlar tufayli qisqa muddatli energiya inqirozlari yuzaga kelishi mumkin. 2030-yilga borib, dunyoda energiyaga bo'lgan ehtiyoj 2008-yildagiga nisbatan 60% ga oshishi prognoz qilinmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasining mavjud ishlab chiqarish quvvatlari 12,9 GVtni tashkil etadi. Buning 2,05 ming MVt qismi yoki 15,8% i gidroelektr stansiyalarining hissasiga to'g'ri keladi. Respublikaning suv salohiyatidan foydalanish koeffitsiyenti qariyb 27% ni tashkil etmoqda.

Tadqiqot davomida O'rta-Chirchiq gidroelektr stansiyalari kaskadi faoliyati asosida elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi. Buning uchun 1992-2019 yillarda elektr energiyasini ishlab chiqarish dinamikasi tahlil qilindi.


O'rganilayotgan davrda Chirchiq daryosidagi o'rtacha suv oqimi o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lgan. Bunda eng yuqori qiymat "G'azalkent gidroelektr stansiyasidan suv chiqarish punkti"da 1993-yil iyun oyining uchinchi o'n kunligiga (899,4 m³/s) to'g'ri kelgan. Eng kam qiymat esa 2020-yil aprel oyining ikkinchi o'n kunligida (43,7 m³/s) kuzatilgan.

Natijalarga ko'ra, Chirchiq daryosidagi o'rtacha yillik suv oqimi, derivatsion kanaldagi o'rtacha yillik suv oqimi, Chorvoq suv omboridan chiqarish punktidagi o'rtacha yillik suv oqimi, G'azalkent gidroelektr stansiyasining chiqish punktidagi o'rtacha yillik suv sarfi, G'azalkent gidropunktidagi o'rtacha yillik suv sarfi, eng yuqori o'rtacha yillik harorat, eng past o'rtacha yillik harorat, yog'ingarchilik kabi omillar elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq, tadqiqot natijalari Chirchiq daryosidagi o'rtacha yillik suv oqimi eng muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

Shunday qilib, Chirchiq daryosidagi o'rtacha yillik suv oqimi 1 birlikga ko'paysa, boshqa omillar o'zgarmagan holda (ceteris paribus farazi bilan), elektr energiyasini ishlab chiqarish 327,6 birlikga oshishini bashorat qilish mumkin. Ya'ni suv ko'rsatkichi shartli ravishda 10 000 mln.m³ eng yuqori yillik ko'rsatkichga yaqinlashganda (1994-yilda o'rtacha yillik suv oqimi 9 494,81 mln.m³ bo'lgan), O'rta-Chirchiq gidroelektr stansiyalari kaskadi tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 4 373,5 mln.kVt*soatni tashkil etishini oldindan prognoz qilish mumkin bo'ladi.



O'zbekiston daryolarining "yashil" elektr energiyasi: ta'sir etish omillari va rivojlanishi



Gidroenergetika ishlab chiqarishiga ta'sir qiluvchi omillar

- ✓ Daryo suv oqimi (muhimroq);
- Maksimal o'rtacha yillik harorat, °C;
- Minimal o'rtacha yillik harorat, °C;
- Yog'ingarchilik, mm/yil.



Uglerod cheklovining energiyani ko'p talab qiladigan tarmoqlarni rivojlantirishga ta'siri



30 SONIYA

Jahon iqtisodiyotidagi vaziyat tufayli uglerod cheklovlarini joriy etish rejalari o'zgartirilmoqda. Biroq, Yevropa parlamentining dunyo taraqqiyotida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq maqsadlarga erishish bo'yicha talablari bekor qilinmadi.

O'rganish natijalariga ko'ra, O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi tarkibida energiyani ko'p talab qiluvchi tarmoqlarning ulushi nisbatan yuqori ekanligi inobatga olinsa, uglerod solig'ini joriy etish jarayoni eksportning qimmatlashish xavfini

yuzaga keltiradi. Issiqxona gazlari emissiyasi uchun qo'shimcha to'lovlar ko'proq kimyo mahsulotlari, qora va rangli metallar kabi tovar guruhlariga ta'sir qiladi. Mahsulotlarning ushbu guruhi uchun texnologiyadagi farqlar tufayli energiya intensivligi va uglerod intensivligi Yevropaga qaraganda ancha yuqori va shuning uchun uglerod to'lovlari yuqori bo'ladi.

Bunday sharoitda O'zbekiston oldida ishlab chiqarilayotgan va eksport qilinadigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha yangi vazifa turibdi. Uning hal etilishi energiyadan tejamkorlik bilan foydalanish va qo'llaniladigan mexanizmlar samaradorligini oshirish bilan bog'liq.



Transport sektoridagi imkoniyatlar

Jamoat transporti sizni qanoatlantiradimi?

Qoniqtirmaydi (1)

To'liq qoniqtiradi (10)

Tungi vaqtda qaysi rangdagi kiyim uzoqroqdan
yaxshi ko'rinadi?

Qora

Oq

Sariq

Qizil

Transport tizimi sifatining subyektiv bahosiga ta'sir etuvchi
omillarni ko'rsating

Avtobus kutish davomiyligi

Jadvalga rioya qilinishi va onlayn ko'rish imkoniyati






Transport almashtirishlar soni

Muqobil transportda (shaxsiy avtomobil, taksi)
tejalgan vaqt


Tegajaklik muammosi



Hozir nima sababdan jamoat transportidan foydalanmaysiz?



Avtomobilingizni shahar atrofida qoldirib, yo'nalishni jamoat transportida davom ettirishga tayyormisiz?



Jamoat transporti sizni qanoatlantiradimi? (Toshkent shahri misolida)



78 SONIYA

Bugungi kunda dunyodagi yirik shaharlarning deyarli barchasi uchun jamoat transporti eng muhim, ustuvor masalalar sirasiga kiradi. Chunki jamoat transporti tizimini yaxshi yo'lga qo'yish orqali iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashish, havoning musaffoligini asrash, odamlarni ko'zlagan manziliga yetkazish va albatta, tirbandliklarni kamaytirish mumkin.

Toshkent shahrida jamoat transporti bilan bog'liq muammolar o'rganib chiqildi va undan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim omillari baholandi. Jamoat transporti muammolarini o'rganish maqsadida aholi o'rtasida so'rov o'tkazildi. Unda Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi 1 315 kishi ishtirok etdi. Ishtirokchilarning 807 nafarini erkaklar, 508 nafarini esa ayollar tashkil qildi.

So'rovda ishtirok etganlarning 29% i shaharning markaziy qismi atrofidagi maxsus transport markazlarida avtomobilni qoldirib, yo'lni jamoat transportida davom ettirishga tayyorligi va shunday markazlarga ehtiyoj sezishini bildirdi.

Respondentlarning 33% i bu masala yuzasidan tizim samarali ishlagandan keyingina bir qaror qabul qilishini, 17% i ehtiyoj sezmasligini va 21% i shunday imkoniyatdan foydalanishni istamasligini bildirdi.

Jamoat transportida yo'lovchilarning haddan tashqari ko'pligi (respondentlarning 73% i shu javobni tanlagan), ularning kelish va harakatlanish jadvaliga rioya qilinmasligi (60%), noqulayligi (36%), boshqa transport vositalarining mavjudligi (27%), bekatlarning holati va noqulay joylashuvi (26%) kabi omillar yo'lovchilarning jamoat transportidan foydalanmasligiga sabab bo'layotgan eng jiddiy muammolardir.

Transport kutish vaqtini har 10 daqiqaga qisqartirish subyektiv baholashni 10 dan 0,4 ballga, kelish va harakat jadvaliga rioya qilish, onlayn kuzatish imkoniyati mavjudligi sifatini jami 1,65 ballgacha oshirishi mumkin (har bir tarkibiy qism alohida 0,55 ball).

Regressiya modellari asosida transport sifatining subyektiv bahosiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillar aniqlandi. Natijalarga ko'ra, uzoq kutish vaqti, transport almashtirishlar soni, tegajalik muammosi va haftalik sayohatlar soni respondentlarning subyektiv bahosiga salbiy ta'sir qiladi. Masalan, har bir transport almashtirish bahoni 0,16 ballga kamaytiradi.

Logit modeli yordamida jamoat transportidan foydalanish ehtimoli aniqlandi. Shunday qilib, subyektiv sifatni 1 punktga yaxshilash jamoat transportini tanlash ehtimolini 4,6% ga oshiradi.



Piyodalar kiyimining rangi yo'l-transport hodisalarining oldini olishda qanday ahamiyatga ega?



91 SONIYA

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi xizmati ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning birinchi yarmida O'zbekistonda 3559 ta YTH sodir bo'lib, ularda 2775 kishi turli darajadagi tan jarohatlarini olgan, 784 nafari esa hayotdan ko'z yumgan. Har to'rtinchi baxtsiz hodisaga tezlikning belgilangan me'yordan oshirilishi sabab bo'lgan. Baxtsiz hodisalarning 47% ida piyodalar urib yuborilgan.

Yo'l-transport hodisalarida katta iqtisodiy xarajatlarga olib keladi. Masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili yo'l-transport hodisalarida 1,3 million kishi hayotdan bevaqt ko'z yumadi va 20 million nafardan 50 million nafargacha odam turli hil tan jarohatlarini oladi. "Yo'l harakati xavfsizligiga sarmoya kiritish: global xususiy sektor majburiyati" nomli tadqiqotda baxtsiz hodisalar dunyo iqtisodiyotiga yiliga 518 milliard dollar zarar keltirishi hisoblab chiqilgan.

Tadqiqot mualliflari 135 ta mamlakatdagi o'lim darajasi va iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha batafsil ma'lumotlardan foydalangan holda baxtsiz hodisalar oqibatida o'lim bilan bog'liq holatlarning o'rtacha 10% ga kamayishi real YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ulushini 24 yil davomida 3,6% ga oshirishini aniqladi.

Jahon banki hisobotiga ko'ra, yo'l-transport hodisalarida tufayli hayotdan ko'z yumish va jarohat olish bilan bog'liq holatlar iqtisodiy rivojlanishning o'rta va uzoq muddatli istiqbollariga ta'sir qiladi, chunki ular katta yoshdagi odamlarni mehnatga layoqatli safidan chiqaradi va jarohat oqibatida mehnat unumdorligini pasaytiradi.


Yo'llarda o'lim darajasini kamaytirishning turli usullari mavjud. Samarali usullardan biri bu tunda piyodalarning yorqin rangdagi kiyimlarni kiyishidir.

Yorug'likni qaytaruvchi elementlar 130 metrdan ko'rinadi. Bu esa soatiga 80 km tezlikda harakatlanayotgan avtomobilning ham o'z vaqtida to'xtashiga imkon beradi. Yorqin ranglar (sariq, oq) 37-55 metr masofadan ko'rinadi. Agar ko'k rang 17 metr masofadan ko'rinsa, qora rang deyarli ko'rinmaydi!

Tezlikni belgilangan me'yordan oshirmaslik, maktab va boshqa ta'lim muassasalari yonida tezlikni pasaytirish haydovchilarga transport vositasini o'z vaqtida to'xtatishga ulgurish imkonini beradi.

Piyodalar ko'p o'tadigan joylarda (jamoat joylari yaqinida, turar joy mavzellarida) tezlikni infratuzilmaviy muhandislik vositalari yordamida cheklash amaliyotini keng miqyosda davom ettirish maqsadga muvofiq. Masalan, jahon amaliyotida yo'l sathidan biroz balandroq piyodalar yo'lagi, piyodalar o'tadigan joylarda yo'lning qatnov qismini toraytirish, sun'iy burilishlar va boshqa usullar qo'llaniladi.

Tungi vaqtda piyodalar kiyimining rangining ko'rinish masofasi (metr)



Agrosanoat

73

O'zbekiston global oziq-ovqat xavfsizligi indeksida 2019-yildan 2022-yilgacha 12 pog'ona yuqorilab, 113 ta mamlakat orasida 73-o'rinni egalladi.

36

O'zbekistonda tashqi bozorlarda yaqqol qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlarining 36 ta guruhi mavjud.

124

2020-yilda O'zbekistonda go'sht yetishtirish tufayli 124 million tonna CO₂-ekv. issiqxona gazlari atmosferaga chiqarilgan.

10%

O'zbekiston oziq-ovqat inflyatsiyasini 10% dan pastroq darajada ushlab turishga muvaffaq bo'ldi.

903,3 mln

2022-yil yanvar-oktyabr oylarida O'zbekiston Respublikasining meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmi 903,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi.





PMTI gilos eksporti uchun eng istiqbolli bozorni aniqladi



50 SONIYA

Dunyo gilos bozorining imkoniyatlari o'rganib chiqildi va u Xitoy bozori gilos eksport qilish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega ekanligi aniqlandi. Imkoniyatlarni o'rganish yoki skanerdan o'tkazish butun dunyodagi bozorlar sonini tizimli ravishda eng yaxshi imkoniyatga ega bitta yoki ikkita maqsadli bozorgacha qisqartirish imkonini beruvchi ko'plab filtrlari bo'lgan jarayon sifatida belgilanadi:

1. Bozorning o'lchami. Gilosni doimiy ravishda import qilgan 93 ta mamlakatdan ko'rib chiqish uchun bozorining hajmi 10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan 21 ta mamlakat qoldiriladi.
2. Bozorning kengayishi. Keyingi o'rganish uchun so'nggi yillarda gilos bozori barqaror ravishda o'sayotgan 13 ta mamlakat saralab olinadi.
3. Bozorga kirish sharti. Yordamchi mezonlar sifatida qo'llaniladi. O'zbekistondan boshqa mamlakatlarga gilos eksportiga ruxsat berilishi va tashish bahosi qo'llaniladi.
4. Raqobat. Yuqori raqobat darajasi mavjud yoki taklif etiladigan narxlar juda past bo'lgan bozorlar chiqarib tashlanadi.

Xitoy gilos bozori o'rtacha import hajmi 1,4 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan dunyodagi eng katta bozor ekanligi aniqlandi.

Bu dunyoda eng jadal o'sayotgan 6-bozor bo'lib, so'nggi ikki yilda uning o'rtacha o'sish sur'ati 12,4% ni tashkil qildi. Bu yaxshi natija. Transport xarajatlari Rossiyaga eksport qilgandagiga qaraganda ko'proq, biroq mahsulot narxi 4,5 baravar yuqori bo'ladi.



O'zbekiston Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksida 2019-yildan 2022-yilgacha 12 pog'ona yuqorilab, 113 ta mamlakat orasida 73-o'rinni egalladi.



47 SONIYA

2019-2022 yillarda O'zbekistonning Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksidagi o'rnini qanday o'zgartirganini tahlil qilindi. Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi (GFSI) ishlab chiqilgan bo'lib, uning reytingi Economist Intelligence Unit tahlil agentligi tomonidan Corteva Agriscience ko'magida har yili qaytadan tuziladi. GFSI-2022 indeksning o'n birinchi nashri bo'lib, 2022-yil

20-sentyabrda nashr etilgan.

GFSI oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatlari, ularning mavjudligi va xavfsizligi, shuningdek, dunyodagi 113 ta mamlakatning tabiiy resurslari va barqarorligiga oid masalalarni ko'rib chiqadi.


Tahlil natijalariga ko'ra, 2019-2022 yillar bo'yicha umumiy reytingda O'zbekiston o'n ikki o'ringa ko'tarildi va 2022 yilda 113 ta mamlakat orasida 73-o'rinni egalladi.

O'zbekiston 2019-2022 yillarda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha eng yuqori o'sish ko'rsatkichlariga erishgan 10 ta mamlakat orasida birinchi o'rinni egalladi.

O'zbekiston "Iqtisodiy foydalana olish imkoniyati" kategoriyasi bo'yicha 18 o'ringa, "Sifat va xavfsizlik" kategoriyasi bo'yicha 3 o'ringa, "Barqarorlik va moslashish" kategoriyasi bo'yicha 36 o'ringa ko'tarildi.

Kelgusida O'zbekistonning reytingdagi o'rnini yaxshilash uchun ichki bozorda oziq-ovqat taklifini oshirish, import ta'minotini diversifikatsiya qilishni ta'minlash, sog'lom ovqatlanish bo'yicha milliy tavsiyalarni ishlab chiqish, oziq-ovqat mahsulotlarini markirovka qilishni joriy etish va boshqalarni amalga oshirishni jadallashtirish mo'ljallangan.

O'zbekistonning Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksidagi o'rnini





O'zbekiston meva-sabzavotining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi va uni baholash mezonlari



43 SONIYA

O'zbekistonda yetishtirilgan meva-sabzavotlar eksportida tovarlarning 36 ta guruhi jahon bozorida ustunlikka ega ekanligi aniqlandi.

Qiyosiy ustunlik asosida raqobatbardoshlikning savdo ko'rsatkichlari tahlil qilib chiqildi va O'zbekistonning jahon bozorida eng raqobatbardosh qishloq xo'jalik va ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari aniqlandi.

Tashqi bozorda qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarning aniqlangan 36 ta guruhida quyidagilar bor:

loviya, mosh;
o'rik, xurmo, gilos;
mayiz, qora olxo'ri, o'rik, olma;
konservalangan kovul va boshqalar.

O'tkazilgan tadqiqot jahon bozorida asosan sarhil meva-sabzavotlar yoki chuqur qayta ishlanmagan mahsulotlar raqobatbardosh ekanligini ko'rsatdi. Keyingi bosqichda meva sabzavotlar va ularni qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha dastur ishlab chiqish zarur. Uning doirasida e'tiborni jahon bozorida (navi hamda sifati bo'yicha) afzal ko'rilishi hamda O'zbekistonda tarmoqning qanday imkoniyatlarga ega ekaniga qarab, meva-sabzavotlarning alohida turlariga qaratish maqsadga muvofiq.

Tahlil UN Comtrade ma'lumotlar bazasidagi ikkita indeks - #RCA va #LFI ni hisob-kitob qilish asosida amalga oshirildi. Hisob-kitoblar uchun Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasining 2017-2021 yillar oralig'idagi 6 ta qiymatli kodi ko'rsatkichlari asos sifatida olindi.



O'zbekistonda go'sht yetishtirish tufayli havoga qancha CO2 chiqariladi?



30 SONIYA

2020-yilda O'zbekiston Respublikasida go'sht yetishtirish tufayli havoga CO2 ekvivalentida 123,9 million tonna chiqindi chiqarilgan. 2000-yil bilan taqqoslaganda chiqarilayotgan issiqxona gazlari (IG) hajmi salkam 3 barobar oshgan. 2020-yilda chiqarilgan issiqxona gazlari tarkibida mol go'shtining ulushi eng katta (92,8%).

Tadqiqot davomida Jozef Pur va Tomas Nemechekning 2018-yilda Science jurnalida chop etilgan, global oziq-ovqat tizimining eng yirik meta-tahlili ma'lumotlaridan foydalanildi. Bu tadqiqotda dunyoning 119 ta mamlakatidagi 38 mingdan ortiq tijorat fermasiga oid ma'lumotlar ko'rib chiqilgandi.

O'simliklar asosida tayyorlanuvchi ozuqaning uglerod izi go'sht va sut mahsulotlarinikiga qaraganda ancha kam ekanligi ma'lum bo'ldi. O'simliklar asosida tayyorlangan mahsulotlar hosil qiluvchi chiqindilar jonivorlar asosida tayyorlanuvchi mahsulotlar chiqindisidan o'rta hisobda 10-50 marotaba kam ekan.





O'zbekiston oziq-ovqat inflyatsiyasini 10% dan pastroq darajada ushlab turishga muvaffaq bo'ldi.



61 SONIYA

Jahonda oziq-ovqat mahsulotlari narxining birdaniga ko'tarilishi 2020-yilning may oyida koronavirus pandemiyasi boshlangan paytga to'g'ri keldi va hozir ham narxlar ancha balandligicha qolmoqda.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning mart oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxi 1990-yildan keyingi eng yuqori darajaga ko'tarilgan.

2022-yilning iyul oyida BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) oziq-ovqat narxlari o'rtacha indeksining keskin tushishini qayd etdi. U 140,9 punktni tashkil etdi. Bu esa iyun oyidagi ko'rsatkichdan 8,6% past. Biroq, yanvar oyidagi ko'rsatkichdan 3,9%, bir yil avvalgi ko'rsatkichdan esa 13,1% yuqori.

2022-yilning iyul oyida oziq-ovqat tovarlari iste'mol narxlari indeksining o'sishi 2021-yilning dekabr oyidagiga nisbatan 107,7% ni tashkil qildi. Narxlarning o'sishiga qaramasdan, mintaqadagi boshqa ko'plab mamlakatlardan farqli o'laroq, ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli O'zbekiston oziq-ovqat inflyatsiyasini 10% dan pastroq darajada ushlab turishga muvaffaq bo'ldi.

2022-yil so'ngigacha qadar uy parrandasi go'shti, bug'doy uni, g'alla va o'simlik yog'ini olib kirish uchun nol stavkali bojxona boji belgilandi. Respublikamiz aholisining alohida turdagi oziq-ovqat tovarlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash maqsadida 2022-yilning 1-maydan 2023-yilning 1-yanvarigacha 22 turdagi iste'mol va oziq-ovqat tovarlari, jumladan baliq, sut mahsulotlari, banan, sitrus mevalar, qahva, sariyog', tuxum va boshqalarni olib kirish uchun nol stavkali bojxona boji belgilandi.

Oziq-ovqat mahsulotlari importining rivojlanishi respublikada oziq-ovqatdan foydalanish va ularning xilma-xilligi uchun qo'shimcha rag'batni ta'minlayapti. 2022-yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat tovarlari importi 1 617,8 million AQSH dollarini tashkil qildi. Bu 2021-yilning shu davridagiga nisbatan 35,8% ko'p demakdir.



2022-yil yanvar-oktyabr oylarida O'zbekistonning meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmi 903,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



29 SONIYA


2022-yilning yanvar-oktyabr oylari davomida xorijiy mamlakatlarga umumiy qiymati 903,3 million AQSH dollariga teng bo'lgan 1 425,3 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilingan. Bu esa 2021-yilning shu davridagiga nisbatan 20,9% ko'p demakdir.

Meva-sabzavotlar eksportida qiymat jihatidan eng katta ulushni uzum (mayizni qo'shgan holda) – 24,0%, shaftoli – 7,5%, mosh – 6,6%, pomidor – 5,4%, qovun va tarvuz – 4,1%, karam – 3,8%, gilos – 3,7%, piyoz – 3,7% egallaydi.

2022-yilning yanvar-oktyabr oylarida eksportning umumiy hajmida meva-sabzavotlar ulushi 5,8% ni tashkil etgan.

O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy import qiluvchilari Rossiya (44,5 foiz), Qozog'iston (20,0%), Xitoy (7,4%), Pokiston (7,4%), Qirg'iziston (4,2%), Afg'oniston (2,5%), Turkiya (2,3%), Belarus (1,7%), Eron (1,2%) va Ozarbayjon (1,1%).

Meva-sabzavotlar eksporti (qiymat jihatidan)



Iqtisodiyotning real sektori

5,76

2010-yildan 2021-yilgacha sanoat mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilish indeksi 4,82 dan 5,76 gacha o'sdi.

22%

Mineral yoqilg'i va paxtaning sanoat eksportidagi ulushi (oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari) 2010-yildagi 50% dan 2021-yilda 22% ga qisqardi.

1-1,5 barobar

O'zbekiston to'qimachilik sanoatida ish haqi darajasi raqobatchi mamlakatlardagidan 1,5-5,0 barobar past bo'lib, bu tarmoqning qiyosiy ustunligini belgilaydi.

Elektr energiyasi ta'minotidagi beqarorlikning kichik biznes subyektlariga salbiy ta'sirini bilasizmi?

Sementbeton qoplamali yo'llar qurilishining afzalliklari qanday?



O'zbekiston sanoat mahsulotlari eksportining diversifikatsiya qilinishi



39 SONIYA


O'zbekiston sanoat mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Shunday qilib, 2010-2021 yillar uchun diversifikatsiya indeksi qiymati 4,82 dan 5,76 gacha oshgan.

Sanoat mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilish darajasini baholash uchun Herfindal-Xirshman yondashuvidan foydalanildi. Ushbu yondashuv iqtisodiy konsentratsiyani baholash uchun ishlatiladi. Diversifikatsiya konsentratsiyaga teskari jarayon. Ushbu mantiqdan kelib chiqqan holda, diversifikatsiya darajasini baholash uchun Herfindal-Hirshman konsentratsiyasi indeksiga teskari indeksdan foydalanildi. Ma'lum vaqt oralig'ida indeks qiymatining oshishi diversifikatsiya darajasining oshishini anglatadi.

2010-yilda sanoat eksportining 50% ikkita asosiy tovarga to'g'ri kelgan – mineral yoqilg'i va paxtaga. Bu esa eksport konsentratsiyasining yuqori darajasini ko'rsatadi. Ushbu tovarlarning eksportdagi ulushi 2021-yil oxiriga kelib esa 22% ni tashkil etdi.

Tayyor to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak eksporti 6 barobar oshdi, elektr texnikasi va uskunalari eksporti hajmi sezilarli darajada oshdi – 73% ga. Shunday o'zgarishlar yuqori qo'shilgan qiymatli boshqa bir qator sanoat mahsulotlari eksportida ham sodir bo'ldi.

O'zbekiston sanoat mahsulotlari eksportining diversifikatsiya indeksi dinamikasi



Qiyosiy ustunlik nuqtai nazaridan investitsiyalar uchun eng jozibador tarmoqlar



52 SONIYA

O'zbekiston to'qimachilik sanoatida ish haqi darajasi raqobatchi mamlakatlardagidan 1,5-5,0 barobar past bo'lib, bu tarmoqning qiyosiy ustunligini belgilaydi.

Investorlar uchun potentsial jozibador bo'lishda qulay ishbilarmonlik va investitsiya muhitidan tashqari, sanoat sohalari ma'lum qiyosiy afzalliklarga ham ega bo'lishi kerak. Tadqiqot natijasida ikkita sanoat guruhi aniqlandi.

Birinchi guruh - xalqaro savdoda qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan va investitsiyalardan darhol daromad olishi mumkin bo'lgan tarmoqlar majmui. Bular to'qimachilik sanoati, kiyim-kechak ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, elektr jihozlarini ishlab chiqarishdir.

Ushbu tarmoqlarning qiyosiy afzalliklarini belgilovchi asosiy omillar mehnat xarajatlari, potentsial bozorlar va mavjud xom ashyo hisoblanadi.

Ikkinchi guruh - rivojlanish potentsialiga ega bo'lgan, lekin investitsiyalardan ma'lum sharoitlarda daromad oladigan tarmoqlarni ifodalaydi. Bunga kimyo sanoati, qora metallurgiya, qurilish materiallari ishlab chiqarish kiradi.

Ushbu tarmoqlarning hozirgi ustunligi energiya narxining nisbatan pastligi bilan bog'liq. Biroq, bu afzallik bozordan tashqari omillar, sun'iy cheklash va energiya narxini subsidiyalash bilan izohlanadi.

Liberallashtirish sharoitida texnologik siyosatni takomillashtirish va mahsulot birligiga resurslar sarfini sezilarli darajada kamaytirish sharti bilan ushbu tarmoqlarga qo'yilgan investitsiyalar daromad keltiradi.

Tarmoqlarning qiyosiy afzalliklari ichki va jahon narxlarida hisoblangan yalpi mahsulotdagi qo'shilgan qiymat ulushining nisbatlaridan foydalangan holda baholandi. Hisob-kitoblarda har bir ko'rib chiqilayotgan soha uchun asosiy mahsulotlar tanlandi.



Avtomobil yo'llari sohasida «yashil» tendensiyalar



O'zbekistonda sement bozori: oligopoliyadan raqobat sari



O'zbekiston so'nggi paytlarda tranzit transporti uchun muhim markazga aylanib borayapti. Bunda avtomobillarda yuk tashish hajmi sezilarli darajada oshishi kutilmoqda.

Sementbeton yo'llarning umumiy iqtisodiy samaradorligi yuqori. Ulardan 30 yil yoki undan ham ko'proq muddat ta'mirsiz foydalanish mumkin. Asfalt yo'llar vaqti-vaqti bilan ta'mirlash hisobiga 8-12 yil davomida xizmat qiladi. Bitum hom ashyosi importini qisqartirish hisobiga sement beton qoplamali yo'llarni qurish pirovardida ancha arzonga tushadi (umumiy xarajatlar 40% dan kam).

Sementbeton yo'llarning resurs bazasi ham katta. Uning asosiy tarkibiy qismlari - sement, shag'al, tosh va qum O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida ishlab chiqariladi.

Bunday yo'llarning atrof-muhitga ta'siri kamroq. Sharqiy Angliya universiteti mutaxassislari beton issiqxona gazlarini o'ziga singdirishini aniqladi. 1930-2013 yillarda dunyo miqyosida barcha beton binolar, inshootlar va sement-beton qoplamali yo'llar 4,5 gigatonna uglerodni o'ziga singdirgan. Bu ishlab chiqarishda hosil bo'luvchi CO2 ning 43% i degani.

Sementbetonning muhim ekologik va iqtisodiy ta'siri undan avtomobil yo'llari qurilishida keng foydalanishdagi asosiy omil bo'la oladi.

2010-yillar boshida sement ishlab chiqarish faoliyati O'zbekistonning uchta hududida jamlangan bo'lib, bu bozorning oligopolistik holatda ekanligini anglatardi.

Sanoatni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish natijasida 2021-yilda mamlakatimizning 11 ta hududida 14,2 million tonna sement ishlab chiqarilib, 2010-yildagiga nisbatan 2,1 barobar ko'paydi. Bu esa sement bozori tuzilishini oligopolistik bozordan raqobatlashgan bozorga aylantirdi.

Hududlar kesimida sement ishlab chiqarish bo'yicha HXI 2010-yilda 3832,1 tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 1818,7 gacha qisqardi. Bu sohadagi hududiy konsentratsiya darajasi pasayganini aks ettiradi.

Investitsiya loyihalarini o'z vaqtida amalga oshirish hamda yangi ishga tushirilgan quvvatlarda mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish 2024-yilda umumiy sement ishlab chiqarish hajmini 23,1 million tonnagacha, shu jumladan, aholi jon boshiga nisbatan esa 629,7 kilogramgacha oshirish imkonini beradi.

Islohotlar natijasida sement ishlab chiqarishning rivojlanishi qurilish ishlarida mahsulotga bo'lgan talabni qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohaning kelgusi rivojlanish bosqichida ekologik me'yorlarga amal qilish juda muhim.





2021-yilda O'zbekistonda mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida amalga oshirilgan standartlashtirish ishlari haqida



33 SONIYA

Standartlashtirish majmua, tarmoq yoki korxonada samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omilidir.

O'zbekistonda ISO 9001 xalqaro standarti bo'yicha 813 ta korxonada 1014 ta sifat, ekologiya va xavfsizlik menejment tizimlari bo'yicha sertifikatlar rasmiylashtirilgan. Mahsulotlarni eksport qilishda 1 781 ta korxonaga markazlashgan holda ko'mak berildi.

Standartlarning ilg'or xorijiy na'munalarga muvofiqligini oshirish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, vaqtni tejash, mahsulot sifatini yaxshilash, yangi bozorlarga kirishni ta'minlash va shu bilan birga eksport hajmini oshirish uchun qulay me'zon yaratadi.

Mamlakatimizda ISO 9001 xalqaro standarti bo'yicha 813 ta korxonada 1 014 ta sifat, ekologiya va xavfsizlik menejmenti tizimlari bo'yicha sertifikatlar rasmiylashtirildi.

Xalqaro talablar bilan uyg'unlashgan 7 763 ta standart qabul qilinib, 7 968 tasi qayta ko'rib chiqildi.

Davlat nazorati sohasida 13,8 mingta korxonada profilaktika tadbirlari o'tkazildi.



Yopiq siklli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi



62 SONIYA

Butun dunyoda chiqindilarning hosil bo'lish sur'ati yil sayin oshib bormoqda. 2020-yilda dunyoda jami 2,24 milliard tonna qattiq chiqindi hosil bo'lgan. Uning atigi 17% i qayta ishlangan.

2050-yilga borganda aholining tez sur'atlar bilan o'sishi va urbanizatsiya tufayli yillik chiqindilarning vujudga kelishi 2020-yildagiga qaraganda 73% ga oshib, 3,88 milliard tonnaga yetishi kutilmoqda. Shu bois dunyodagi qator mamlakatlar qattiq maishiy chiqindilarning hosil bo'lishini kamaytirish va mahsulotlardan takroran foydalanish yoki ularni qayta ishlash uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rmoqda.

Masalan, Niderlandiya 2030-yilga borib, resurslardan foydalanishni 50% ga kamaytirish va 2050-yilga borib, chiqindilarsiz yopiq siklli iqtisodiyotga to'liq o'tishni maqsad qilgan. Fransiyada esa 100% yopiq siklli iqtisodiyotga o'tishga oid 50 ta chora-tadbirni o'z ichiga olgan yopiq siklli iqtisodiyotning yo'l xaritasi ishlab chiqilgan.

O'zbekiston ham mamlakatda yopiq siklli iqtisodiyotni tatbiq etish va rivojlantirishga harakat qilayapti. 2019-yilda qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning samarali va zamonaviy tizimini yaratishni nazarda tutuvchi "2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi" tasdiqlangan.

Strategiyada hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarning kamida 60% ini qayta ishlashni ta'minlash, o'ziga xos xususiyatga ega qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmini 25% gacha oshirish va chiqindi poligonlarida ko'mib yuboriladigan qattiq maishiy chiqindilar hajmini 60% gacha kamaytirish kabi maqsadli ko'rsatkichlarga erishish ko'zda tutilgan.



Yer islohotlari: jahon mamlakatlari va O'zbekiston tajribasi



73 SONIYA

Dunyoda:

Osiyo mamlakatlari orasida Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy qishloq xo'jaligi yerlarini qayta taqsimlash va yerga egalik huquqini o'rnatishda katta muvaffaqiyatga erishgan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda bu mamlakatlarda yerlarni qayta taqsimlash bilan bog'liq bir qator dasturlar amalga oshirilgan va ularga barcha qishloq mehnatkashlari jalb qilingan. Fermer oilalariga dehqonchilik qilish uchun teng miqdorda yer ajratilgan.

O'g'it va urug'lik yetkazib berish infratuzilmasini yaratish, sug'orish tizimlarini qurish, qishloq xo'jaligi ta'limi dasturlarini amalga oshirish va boshqa bir qator yo'nalishlarda davlat tomonidan ko'rsatilgan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ham muhim rol o'ynadi.

Natijada ushbu mamlakatlarda ham ekinlar hosildorligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi keskin oshdi.

O'sib borayotgan aholi bandligi, oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlandi. Bundan tashqari, mahsulotlar eksport qilina boshlandi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ushbu mamlakatlarning

yanada sanoatlashishiga turtki berdi.

O'zbekistonda:

O'zbekistonda yerga bo'lgan munosabatdagi sezilarli o'zgarish 2017-yildan keyin boshlandi. 2019-yildan yerga (qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan) xususiy mulkchilik joriy etildi. Mahalliy hokimiyat organlarining yerga bo'lgan munosabatga taalluqli bir qator vakolatlari bekor qilindi. Yerdan foydalanish sohasini raqamlashtirish borasida katta ishlar amalga oshirildi.

2022-yilda maxsus qonun bilan yer uchastkalarini olib qo'yish tartibi, olib qo'yish uchun asoslarning aniq ro'yxati, tovon undirish tartibi tasdiqlandi va olib qo'yish jarayonining o'zi qiyinlashdi. Bu yerga egalik huquqining qo'shimcha kafolatlarini yaratadi.

Keng ko'lamli yer islohotlarini samarali amalga oshirish uchun quyidagilar zarur:

- qabul qilingan barcha qonun hujjatlarining sifatlari bajarilishini ta'minlash va ularning bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirish;
- yerga bo'lgan munosabat sohasida raqobat muhitini rivojlantirishni hisobga olgan holda birja savdolari va auksionlar borasidagi normativ-huquqiy hujjatlar paketini takomillashtirish;
- ko'p xonadonli turar joy binolariga tutash hududlarning yerlaridan foydalanish huquqini qonunchilik darajasida ishlab chiqish;
- jamoatchilik ishtirokini ta'minlash va amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni muhokama qilish.





Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ)da ishlab chiqarilgan va aholi o'rtasida eng xaridorgir bo'lgan mahsulot turlari aniqlandi



83 SONIYA

Maxsus iqtisodiy zonalarda ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan xilma-xil, sifatli, zamonaviy mahsulotlarning 47% dan ko'prog'i aholiga sotilmoqda. Iste'molchilar qanday mahsulotlarni afzal bilishini baholash uchun Iste'molchilarning afzal ko'rish indeksi (ICP)dan foydalanildi.

Ushbu indeks savdo hajmi indeksi, iste'mol narxlar indeksi va tovar zaxiralari qoldiqlari indeksini o'z ichiga oladi. ICP metodologiyasi asosida iste'mol mahsulotlari reytingi tuzib chiqildi. Indekslar iste'mol uchum mo'ljallangan 27 xil mahsulot bo'yicha hisoblangan bo'lib, ular ishlab chiqarilgan jami iste'mol mahsulotlarining 81% ini tashkil etadi.

2022-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra, iste'molchilar orasida 11 turdagi mahsulotga talab ortgan. Bu o'rganilgan mahsulot turlari umumiy miqdorining 40,7% i demakdir.

Joriy yilning 9 oyi davomida 15 turdagi mahsulot (o'rganilgan mahsulot turlarining 55,6% i) bo'yicha savdo hajmi oshgan, 10 turdagi (37%) mahsulot bo'yicha iste'mol narxlar pasaygan, 9 turdagi (33,3%) mahsulot bo'yicha esa tovar zaxiralari qoldig'i kuzatildi.

To'qimachilik va tikuvchilik mahsulotlari, oziq-ovqat, kimyo, metall va mashinasozlik, qog'oz

va shisha mahsulotlari yilning dastlabki oylarida aholi o'rtasida talab eng yuqori mahsulotlar bo'ldi. Yilning birinchi yarmida to'qimachilik va tikuvchilik mahsulotlarining o'rnini elektrotexnika mahsulotlari egalladi. 2022-yilning 9 oyida farmatsevtika mahsulotlari birinchi o'ringa ko'tarildi va iste'molchilarning avtomobillarga qiziqishi ortdi. Agar ICP subindekslariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2022-yilning 3 ta choragida savdo indeksi bo'yicha avtomobillar va boshqa avtomototransport vositalari, ustara va ustara pichoqlari, gulqog'ozlar; tagliklar hamda isitish pechlariga bo'lgan talab o'zgarmagani va ushbu mahsulotlar yetakchi o'rinlarni saqlab qolganini ko'rish mumkin.



Iste'mol narxlar indeksi bo'yicha har chorakda mevalar, yong'oqlar va tayyorlangan yoki konservalangan boshqa mahsulotlar, ustara va ustara pichoqlari, gulqog'ozlar, isitish pechlarining narxlarida pasayish kuzatildi. Shuningdek, joriy yilning 3-choragida narxlar pasaygan iste'mol mahsulotlarining turlari yil boshidagiga nisbatan 2 barobar oshdi.

Tovar zaxiralari qoldiqlari indeksi bo'yicha joriy yilning 9 oyi davomida telefon apparatlari, maishiy elektromexanik mashinalar va konservalangan loviya mahsulotlarining zaxira qoldiqlari kamayishi qayd etildi. Zaxira qoldiqlarining kamayishi bo'yicha eng ko'p mahsulot turi 2-chorakda (mahsulotlarning 12 ta turi bo'yicha yoki 44,4 %) kuzatildi.


MIZlarning aholiga eng maqbul bo'lgan mahsulotlari (2022-yilning 1-oktyabr holatiga ko'ra)

Iste'molchilarning afzal ko'rish indeksi (CP)
bo'yicha iste'molchilar ma'qul ko'rgan
mahsulotlar o'ntaligi

■ Ekspart ■ Ichki bozor



Mahsulotlarning iste'mol afzalligiga ta'sir ko'rsatgan omillar (indekslar, birlikda)



Mahsulotlarning savdo hajmi indeksi (KV) bo'yicha o'ntaligi

Dorilar	62,88 ↑
Tagliklar	25,50 ↑
Muzlatkichlar	3,07 ↑
Pechkalar	2,82 ↑
Avtomobillar	2,07 ↑
Kungaboqar yog'i	1,02 ↑
Ustara	0,98 ↑
Gulqog'oz	0,64 ↑
Monitorlar	0,52 ↑
Un	0,46 ↑

Mahsulotlarning iste'mol narxlari indeksi (KP) bo'yicha o'ntaligi

Tagliklar	-0,93 ↓
Dorilar	-0,89 ↓
Pechkalar	-0,75 ↓
Mevalar	-0,56 ↓
Gulqog'oz	-0,24 ↓
Qadoqlash	-0,15 ↓
Elektromexanik mashinalar	-0,14 ↓
Un	-0,08 ↓
Ustara	-0,05 ↓
Gilamlar	-0,01 ↓

Mahsulotlarning tovar zaxiralari qoldiqlari indeksi (KF) bo'yicha o'ntaligi

Loviya	-1,00 ↓
Muzlatkichlar	-0,96 ↓
Maishiy texnika	-0,91 ↓
Choyshablar	-0,70 ↓
Elektromexanik mashinalar	-0,61 ↓
Telefon apparatlari	-0,55 ↓
Ustara	-0,51 ↓
Shisha idishlar	-0,18 ↓
Tish cho'tkalari	-0,07 ↓
Qandolatchilik	0,00 ↓↑

Hududlarni rivojlantirish

18

O'zbekiston iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'langan bo'lib, bu sohaning YaIMdagi ulushi yuqoriligi bo'yicha jahon mamlakatlari orasida 18-o'rinni egallaydi.

43%

O'zbekistondagi eng ommabop avtomobil "Spark" ekani ma'lum bo'ldi. Toshkent, Andijon, Samarqand, Farg'ona, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrida avtomobil qidiruvlarining 30-43% "Spark" avtomobili hissasiga to'g'ri keldi.

25%

Yuqori texnologik tayyor mahsulotlar (ishlab chiqarish sanoatining 25% gacha) hissasining oshishi mamlakat sanoatining texnologik transformatsiyasini tavsiflab, hududlar iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish platformasiga aylantirmoqda.

124

O'zbekistonda go'sht narxining o'sishi mavsumiy xarakterga ega bo'lib, tadqiqot natijalari (2018-2020 yillarni qamrab olgan) mamlakatimizda 22% holatda yog'ingarchilikning o'zgarishi mol go'shti narxining o'zgarishi bilan bir paytga to'g'ri kelishini ko'rsatdi



Mahallada hokim yordamchisi ishini samarali tashkil etish bo'yicha qo'llanma



59 SONIYA

Mamlakatimiz mahallalarida hokim yordamchisi ish samaradorligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Shu munosabat bilan PMTI mutaxassisleri tomonidan "Mahallada hokim yordamchisi ishini samarali tashkil etish" deb nomlangan qo'llanma ishlab chiqildi. Ushbu qo'llanma mamlakatimizdagi 9300 dan ortiq mahallada ish olib borayotgan hokim yordamchilari hamda 207 ta tuman, shahardagi respublika vakillari uchun mo'ljallangan.

Bunda hokim yordamchisi ish faoliyatida e'tibor qaratishi zarur bo'lgan quyidagi masalalar yoritilgan:

*6 ta muhim qoida;
10 ta asosiy vazifa;
4 ta yo'nalish;
5 ta moliyaviy dastakning manbalari;
hokim yordamchisi tomonidan tavsiya beriladigan
23 xil kredit, subsidiya, moddiy yordam turlari.*

Mahallaning ixtisoslashuvi va drayverlarini aniqlovchi 7 ta omil, 6 ta resurs imkoniyatlari keltirib o'tilgan.

Hokim yordamchisining shaxsiy ma'naviy qiyofasiga oid 9 xil odob-axloq qoidalari haqida so'z yuritilgan.

Qo'llanmaning afzal jihatlari:


- hokim yordamchilari uchun xatlov jarayonida xonadonlarni 4 toifaga guruhlash va ular bilan 4 yo'nalishda samarali ish olib borishida yordam beradi:
- aholini ish bilan ta'minlashda o'zini – o'zi band qilish, hunarmandchilikni va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilishning moliyaviy dastaklari ko'rsatildi;
- aholini kasb-hunarga o'qitish, ishsizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda moliyaviy manbalarni belgilab olishda yordam beradi;
- mahalladagi mavjud muammolarni hal etish, yangi tadbirkorlikni yaratish va mavjud tadbirkorlar faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi;
- kooperatsiya asosida faoliyat ko'rsatish mexanizmlarini belgilash hamda o'sish nuqtalari va drayverlarini aniqlab olish imkonini beradi.



Qo'llanmani yuklab olish




Institute of Forecasting and
Macroeconomic Research



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI

MAHALLADA HOKIM YORDAMCHISI ISHINI SAMARALI TASHKIL ETISH BO'YICHA QO'LLANMA

Mahalliy ijro hokimiyati faoliyatini samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash



Mahalliy ijro hokimiyati faoliyatini samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash



46 SONIYA

Mahalliy ijro hokimiyati faoliyatini KPI asosida baholash metodologiyasi ishlab chiqildi hamda 4 ta tumanda amaliy baholash sinovidan o'tkazildi. Baholash BMTning Taraqqiyot Dasturi va Yevropa Ittifoqining "O'zbekistonning qishloq hududlarida davlat xizmatlarini taqdim etishni takomillashtirish va mahalliy boshqaruv darajasini oshirish" qo'shma loyihasi doirasida amalga oshirildi.

Barcha baholash mezonlari natijasiga ko'ra, samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari Dehqonobod tumani bo'yicha 59,9%, Kosonsoy – 60,0%, Sho'rchi – 57,9% hamda Baxmal – 71,7% ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan Dehqonobod (57,18% dan 59,95% gacha, ya'ni 2,8 foiz punktiga) va Kosonsoy (55,81% dan 60,0% gacha, ya'ni 4,2 foiz punktiga) tumanlarida KPI bo'yicha ko'rsatkichlari biroz oshgani kuzatildi.

Tumanlar bo'yicha tahlil natijalari Baxmal tumanida mahalliy boshqaruv samaradorligi nisbatan yuqori (70 balldan yuqori), Kosonsoy va Dehqonobod tumanlarida o'rta darajada (60-70 ball), Sho'rchi tumanida esa nisbatan past (40-60 ball) bo'lganini ko'rsatdi.

Mazkur metodologiya 2022-2026 yillar uchun mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi 33-maqsadida keltirilgan va ijtimoiy-

iqтisodiy rivojlanish reyting ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" bo'lgan shahar va tumanlar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni ko'zda tutuvchi ustuvor yo'nalish bo'yicha vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.



O'zbekiston hududlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligi tahlili



54 SONIYA

Hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish omillar unumdorligi DEA uslubi asosida tahlil qilindi.

O'zbekiston o'rik yetishtirish bo'yicha dunyo reytingida Turkiyadan, ipak bo'yicha Xitoy, Hindistondan, Vyetnam va Tailanddan, sabzi va sholg'om yetishtirishda Xitoydan keyingi o'rinda turadi.

Reyting ko'rsatkichlari tahlili iqtisodiy samaradorlik yuqori bo'lgan hududlarda doim ham omillar unumdorligi yoki texnik samaradorlik yuqori bo'lavermasligini yana bir bor ko'rsatdi. Masalan, Buxoro, Namangan, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida iqtisodiy va texnik samaradorlik ko'rsatkichlari o'rtasida aloqadorlik kuzatilgan bo'lsa, qolgan hududlarda reyting ko'rsatkichlari bo'yicha tafovutlar mavjud. E'tiborli jihati shundaki, omillar yalpi unumdorligi kichik qiymatlarni tashkil etgan ba'zi hududlarda texnik samaradorlik yuqori bo'lgan. Bu esa mazkur hududlarda ishlab chiqarish omillaridan yetarli darajada oqilona foydalanilmayotganini bildiradi.

DEA uslubi asosida 2019-yil uchun olingan natijalar Namangan viloyati uchun Jizzax hamda Farg'ona viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun Buxoro, Navoiy, Farg'ona, Toshkent va Andijon viloyatlari, Sirdaryo viloyati uchun Jizzax, Toshkent va Farg'ona viloyatlari, Surxondaryo viloyati uchun Farg'ona va Xorazm viloyatlari, Samarqand viloyati uchun Navoiy, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlarini namunaviy hudud sifatida tanlab olish mumkinligini ko'rsatdi.

Hududlarning agro-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, Namangan viloyati uchun Farg'ona, Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun Buxoro, Sirdaryo viloyati uchun Jizzax, Surxondaryo viloyati uchun Xorazm, Samarqand viloyati uchun Navoiy viloyatini namunaviy hudud sifatida tanlab olish tavsiya etiladi.



Hududlarning to'qimachilik sanoatida eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari baholandi



124 SONIYA

Hududlarning to'qimachilik sanoatida eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari baholandi. O'zbekiston Jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlash maqsadida eksportda xom ashyo (paxta tolasi) dan yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor tovarlarni eksport qilish bosqichiga o'tmoqda.

Research and Market tadqiqot agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2018-2020 yillarda O'zbekiston jahon reytingida paxta ishlab chiqarish bo'yicha 6-o'rinni, paxta eksporti bo'yicha 3-o'rinni, paxta tolasi eksporti bo'yicha 2-o'rinni egallagan.

2021-yilda O'zbekiston iqtisodiyotida yalpi qo'shilgan qiymatda to'qimachilik sanoatining ulushi 2,9%ni tashkil etgan. Shundan 2,2% i to'qimachilik mahsulotlari va 0,7% i kiyim - kechakning hissasiga to'g'ri kelgan. 2020-yil bilan qiyoslaganda eng katta tarkibiy o'zgarishlar to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida kuzatilgan (2,0% dan 2,2% gacha). Shu bilan birga, to'qimachilik sanoati mamlakatimizning tovar va xizmatlar eksportida yetakchi o'rinni egallaydi (tovar va xizmatlar umumiy eksportining qariyb 17,5% i).

Hududlarning raqobat ustunligi nimalarda namoyon bo'ladi?

Aksariyat hududlarning (Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Farg'ona, Xorazm viloyatlari) eksporti ip-kalava va gazlamaga yo'naltirilgan (hudud eksport savatida mahsulot ulushi 21,0%-58,0%, RCA=1,578-4,209);

Tayyor mahsulotni eksport qilish bo'yicha Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent, Farg'ona viloyatlari ustunlikka ega (respublika kiyim - kechak va kiyim



aksesuarlari eksporti hajmining 80% dan ortig'i, RCA=1,040-5,478).

To'qimachilik sanoati eksportining hududiy muvozanati omillari o'zida nimani aks ettiradi?

Jahon bozorida raqobatning kuchayib borishi hududlarning eksport salohiyatini yanada kengaytirishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan to'qimachilik sanoati eksportining hududiy muvozanati konsentratsiya va diversifikatsiya omillarini hisobga olgan holda quyidagi xususiyatlarni oydinlashtirib berdi:

To'qimachilik iplari va matolari (0,065), tayyor mahsulotlar (0,227) eksportida nisbiy hududiy diversifikatsiya ($HHI \leq 0,300$; dekonstratsiya) qayd etilib, mamlakatning aksariyat hududlari ushbu turdagi mahsulotlarni eksport qilishda raqobat ustunligiga ega;

Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Farg'ona viloyatlari to'qimachilik mahsulotlari eksportining tovar tarkibida ip va matolar (viloyatning tovar va xizmatlar umumiy eksportining 50% dan ortig'i), ya'ni past texnologik turdagi tovarlar ustunligi tufayli diversifikatsiya darajasi yetarli emasligi qayd etildi.

O'zbekiston to'qimachilik sanoatini rivojlantirish istiqbollari qanday?

Jahon va milliy tajriba shuni ko'rsatadiki, diversifikatsiyalangan eksport sharoitida mamlakat va uning hududlari iqtisodiyoti ichki va tashqi omillar ta'siriga nisbatan ancha chidamli hisoblanadi. Shuni inobatga olib, to'qimachilik mahsulotlari eksportini kengaytirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

Yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarilgunga qadar ip va matolarni sanoat usulida davomli qayta ishlashni ta'minlash (Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Farg'ona, Toshkent viloyatlari). Bunda Buxoro viloyatini tajriba hududi sifatida tanlab, to'qimachilik mahsulotlarining qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish sxemasini shakllantirish lozim.

Eksportning istiqbolli yo'nalishi sifatida innovatsion to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishni o'zlashtirish. Bunda hududlar uchun mamlakatning rivojlangan neft-kimyano sanoati negizida sun'iy tolalar, sintetik matolar va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlari mavjud (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon,

Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent viloyatlari).

Hududning o'ziga xos jihatlari, mahalliy an'analar, zamonaviy dizayn va modani hisobga olgan holda tayyor to'qimachilik mahsulotlarining xalqaro mintaqaviy forumlarini o'tkazish, bu borada tajriba va bilim almashish, xorijiy dizaynerlar, dunyoning yetakchi texnologlarini jalb etish tashqi bozorda talab katta bo'lgan tikuv va trikotaj mahsulotlari assortimentini kengaytirish imkonini beradi.



Hududlarning iqtisodiy rivojlanishini muqobil ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish



67 SONIYA


Norasmiy iqtisodiyotning ulushi yuqori mamlakatlarda rasmiy statistik manbalardan foydalanish yanglish xulosalarga olib kelishi mumkin. YaIM, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, chakana savdo aylanmasi kabi qator iqtisodiy ko'rsatkichlar faqat rasman ro'yxatdan o'tgan subyektlar topshirgan hisobotlar asosida shakllantirilishi sababli ularni ishonchli, deb bo'lmaydi.

Tungi chiroqlarning fazoviy tasviri (NTL - Nighttime lights) mintaqalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda turli tashqi shoklarning iqtisodiy ta'sirini baholashda foydalaniladigan mashhur ma'lumot turi hisoblanadi.

NTL mamlakat hududlari aholisi, uning zichligi, ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, pirovardida, malakat hududining iqtisodiy faol qismi haqida tasavvurni shakllantirishda yordam beradi.

Sun'iy yo'doshdan olingan tungi yorug'lik tasvirini 63 xil rangda qayta ifodalash natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil dekabr oyida tunda yoritilganlik darajasi 2016-yilning mos davriga nisbatan Qirg'izistonda 11,8%, Qozog'istonda 15,5%, O'zbekistonda 47,2%, Turkmanistonda 37,5%, va Tojikistonda 64,4% ga ortgan.

Shuningdek, 2021-yilda YaIM 2016-yildagiga nisbatan Qirg'izistonda 7,8%, Qozog'istonda 14,9%, O'zbekistonda 27,3%, Turkmanistonda 35,2% va Tojikistonda 41,1% ga ortgan.



Kuzatuvlar shuni isbotladiki, tungi yorug'lik darajasi mamlakatlarning iqtisodiyoti ko'lami bilan mos tushadi. Xususan, o'rganilgan 5 mamlakat orasida Qozog'iston YaIM bo'yicha yetakchi va yorug'lik darajasi eng yuqori (DN - NTL ma'lumotlarining raqamli qiymati = 9907701,5 piksel) hisoblanadi. Keyingi o'rinlardan joy olgan O'zbekiston va Turkmanistonda, yorug'lik darajasi DN = 1809744,8 va 1774334,1 pikselni tashkil etadi. Qirg'iziston va Tojikiston YaIM hajmi bo'yicha ham, tungi yorug'lik darajasi bo'yicha ham oxirgi o'rinlardan joy oladi.

Respublikamiz hududlari orasida Xorazm, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida yorug'lik darajasi 2016-2021 yillarda 1,9-3,6 barobargacha ortgan. Yorug'lik darajasining eng kam o'zgarishi Qashqadaryo viloyatida kuzatilib (0,8%), viloyat YaHM hajmi bo'yicha ham hududlar orasida eng kam o'sish (18,9%) ko'rsatkichiga erishgan.

tovarlari bo'yicha qidiruvlar soni olindi. Bunda Google Trends veb ilovasidan foydalanildi. Izlashlar soni hududlardagi aholi soniga nisbatan hisoblangan vazn ko'rsatkichlari yordamida qayta baholandi.

Olingan natijalarga ko'ra, konditsioner va mebel Navoiy, Sirdaryo va Buxoro viloyatlarida, sovutgich Sirdaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlarida, televizor Navoiy, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida talabgir bo'lgan.

Ma'lumot uchun: YaHMning aholi jon boshiga ulushi bo'yicha respublika hududlari orasida Navoiy viloyati birinchi bo'lsa, Toshkent, Buxoro, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari Toshkent shahridan keyingi yetakchilar hisoblanadi.

Yengil avtomobillar ("Spark", "Damas", "Cobalt", "Gentra") bo'yicha izlash natijalariga ko'ra, O'zbekistondagi eng ommabop avtomobil "Spark" ekani ma'lum bo'ldi. Toshkent viloyatida qidiruvlarning 43% i, Andijonda 38% i, Samarqandda 36% i, Farg'onada 31% i, Namangan viloyatida 30% i va Toshkent shahrida 36% i "Spark" avtomobili hissasiga to'g'ri kelgan. "Spark" eng kam izlangan hududlar sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarini keltirish mumkin. Ma'lumot uchun: Bu viloyatlar shahar va shaharchalar soni bo'yicha mamlakat hududlari orasida quyi o'rinlardan joy oladi.



Hududlar aholisi daromad darajasining muqobil ko'rsatkichlari tahlili



93 SONIYA

Hududlar aholisi daromadining muqobil ko'rsatkichi sifatida 2021-yil davomida Google platformasidagi uzoq muddatli iste'mol

“Cobalt” Qoraqalpog‘iston Respublikasi (33%), Xorazm, Buxoro va Surxondaryo (31%), Navoiy va Jizzax viloyatlarida (28%) eng talabgir bo‘lib chiqdi. Shuningdek, “Damas” Sirdaryo viloyatida (33%), “Gentra” esa Qashqadaryo viloyatida (26%) eng ko‘p izlangan avtomobil bo‘lgan.

Aholining aksariyat qatlami foydalanadigan uyali aloqa vositalaridan Redmi, Galaxy va iPhone rusumli mobil vositalar qiyoslanganda, Redmi mobil aloqa vositasi boshqalariga nisbatan talabgir bo‘lib, Google qidiruvlari tarkibida Qashqadaryo (55%), Surxondaryo (50%), Xorazm (48%) va Sirdaryo (48%) viloyatlarida eng ko‘p ulushga egaligi aniqlandi.

Galaxy aloqa vositasiga qiziqish darajasi deyarli barcha hududlarda nisbatan past bo‘lib chiqdi. iPhone dan foydalanish Toshkent shahri (59%), Buxoro (46%), Samarqand (46%) va Toshkent viloyatida (45%) urfga kirgan, deyish mumkin.

Ma‘lumot uchun: Qashqadaryo, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida aholi jon boshiga real daromadlar O‘zbekiston bo‘yicha o‘rtachadan 16-23% kam bo‘lsa, Toshkent shahri, Buxoro va Toshkent viloyatlari bu jahdada yetakchi hududlar sanaladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbekiston hududlarida avtomobillarni tanlashda infratuzilmaning rivojlanish darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Maishiy texnika va uy ro‘zg‘or buyumlari xaridlari nazariy jihatdan hududning iqtisodiy salohiyati, xususan, aholining real daromadlari hajmi bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak. Bu faraz qisman tasdiqlanganiga qaramay, natijalar Sirdaryo va Buxoro viloyatlari aholisining texnikaga talabi rasmiy statistik ma‘lumotlarga qaraganda baland ekanini ko‘rsatdi.



Hududlar sanoatida texnologik transformatsiya darajasi



2022-yilning I choragida mamlakat hududlarida sanoatning texnologik transformatsiyasi (STT) ni baholashga qaratilgan tadqiqot o‘tkazildi.


Tadqiqot natijasida O‘zbekistonda sanoatning texnologik transformatsiyasi (STT) ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning ijobiy tendensiyasiga ega ekanligi bilan xarakterlanishi aniqlandi. Mamlakat qayta ishlash sanoatining umumiy hajmida yuqori texnologik va o‘rta-yuqori texnologik ishlab chiqarish ulushining ortishi shundan darak beradi.

Hududlar sanoatining texnologik transformatsiyasini baholash uchun RCA va HHI indekslaridan foydalanildi. Ular hududlar sanotining ixtisoslashuvi hamda diversifikatsiyalashuvini aniqlash imkonini beradi.

2022-yilning I choragi yakunlariga ko‘ra, hududlar sanoatining texnologik transformatsiyasida quyidagi o‘ziga xos jihatlar aniqlandi:


- O‘zbekiston sanoatining texnologik transformatsiyasi ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning ijobiy tendensiyasi (2021-yilning I choragidagi u yoki bu darajada bir tekis taqsimlanishi) bilan xarakterlanadi;
- Sirdaryo (HHI ning ortishi 0,332 dan 0,465 gacha), Navoiy (0,221 dan 0,264 gacha), Jizzax (0,465 dan 0,765 gacha), Toshkent (0,504 dan 0,544 gacha) viloyatlari sanoati diversifikatsiyalashuvidagi ijobiy o‘zgarish asosan yuqori texnologik tayyor mahsulotlarning o‘zlashtirilishi hisobiga ro‘y berdi;

Hududlar bo‘yicha maishiy texnika va uy-ro‘zg‘or buyumlariga bo‘lgan talab darajasi*



*Aholi soniga qarab vazn ko‘rsatkichlari inobatga olingan

Go'sht narxning o'zgarish dinamikasi



0,720 dan 2022-yilning I choragida 0,753 gacha). Bu yuqori texnologik mahsulotlar ulushining (2,5% dan 2,7% gacha), o'rta-yuqori texnologik mahsulotlar ulushining esa (19,2% dan 22,5% gacha) ortishi bilan bog'liq;

- Toshkent shahri, Jizzax, Xorazm, Qashqadaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (HHI>0,600) sanoatining nisbiy diversifikatsiyalashuvi mazkur hududlarda o'rta va past texnologik ishlab chiqarish quvvatlarining ko'pligi bilan bog'liq.

- Toshkent shahri (RCA=4,804) bilan bir qatorda Sirdaryo (1,959) va Toshkent (0,739) viloyatlari ham yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishda (RCA>0,700) raqobat ustunligiga ega;

- Mamlakat hududlarining aksariyati (Toshkent sh, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Qashqadaryo, Xorazm, Samarqand viloyatlari) o'rta-yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishning nisbatan rivojlanganligi (RCA>0,700) bilan ajralab turadi; Mazkur hududlarning qayta ishlash sanoatida mashinasozlik, kimyo va neft-kimyo sanoatlari rivojlangan.

Sanoatning texnologik transformatsiyasi (STT) O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining oylik, choraklik va yillik ma'lumotlari asosida baholanadi. Bu esa hududlarda sanoatning texnologik rivojlanishini tizimli tarzda baholab borish, hududiy ustunlik va nomutanosibliklarni, hududlarni rivojlantiruvchi drayverlarni aniqlash imkonini beradi.



Go'sht narxi yog'ingarchilikka bog'liqlikmi?



62 SONIYA

Oziq-ovqat ta'minotida barqarorlikni saqlashga qaratilgan urinishlarga qaramay, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarning qishloq xo'jaligidagi hosildorlik mavsumiy ob-havoga bog'liq bo'lib qolmoqda. Global iqlim o'zgarishi sharoitida yog'ingarchilik miqdorining kamayib ketishi oqibatlarini yumshatish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun qurg'oqchil sharoitga moslasha oladigan ekin navlarini yaratish va ularni yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish hamda tarqatish zarurati ortib bormoqda.

PMTI ekspertlari o'tkazgan tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda go'sht narxining o'sishi mavsumiy xarakterga ega. Iyul, avgust, sentyabr va oktyabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etiladi. Masalan, 2019-yilning ana shu oylarida mol go'shti narxi 3,6%, 7,6%, 5,8% va 2,1%, 2020-yilda esa 0,6%, 1,5%, 3,3% va 5,9% ga oshgan. O'zbekistonda dekabr-yanvar oylarida narxning tushishi yoki kam miqdorda o'sishi kuzatiladi.

Go'sht narxning o'zgarish dinamikasi fevral oyining oxiri, mart va aprel oylaridagi yog'ingarchilik miqdori va bu oylardagi havo harorati bilan uzviy bog'liq. Yaylovlarda chorva mollari iste'mol qiladigan o'simliklarning erta bahorda unib chiqishi, o'sishi va yetilishidagi asosiy omil ham shu. Xususan, fevral oyining oxiri va mart oyida yog'ingarchilik miqdori va quyoshli kunlarning kam bo'lishi o'simliklar baravj o'smasligi va yetilgan o'simliklarning bo'yi past bo'lib qolishiga olib keladi. Bu esa ozuqa

tanqisligini keltirib chiqaradi.

O'zbekistonda fevral, mart va aprel oylaridagi o'rtacha yog'ingarchilik miqdori 2019-yilda 118,0 mm.ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 92,4 mm.gacha kamaygan.

2018-2020 yillarni qamrab olgan tadqiqot natijalari mamlakatimizda 22% holatda yog'ingarchilikning o'zgarishi mol go'shti narxining o'zgarishi bilan bir paytga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.



Hududlarda suvdan foydalanish samaradorligi indeksi



Butunjahon Meteorologiya tashkilotining global suv resurslarining holatiga oid hisobotida ma'lum qilinishicha, 2050-yilga borib, yer yuzida istiqomat qiluvchi besh milliarddan ortiq kishi turli darajada suv tanqisligini boshdan kechiradi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozir dunyo bo'yicha 2 milliarddan ortiq kishi toza ichimlik suvi ta'minotiga ega emas. 2021-yilda dunyoning ko'plab hududlarida 30 yillik gidrologik oraliq mobaynidagi o'rtachadan ko'ra kuchliroq qurg'oqchilik bo'lgani kuzatildi. Shuningdek, 3,6 milliard odam yil davomida kamida bir oy suvdan yetarli darajada foydalana olmaslik muammosiga duch kelmoqda

Jahon tabiiy resurslar instituti (World Resources Institute) va Britaniyaning Economist Intelligence Unit tashkiloti tadqiqotlariga ko'ra, 2040-yilga borib, suv tanqisligiga eng ko'p uchrashi taxmin qilinayotgan 33 ta davlat orasida Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan O'zbekiston ham bor.

Iqtisodiyot tarmoqlarida foydalaniladigan suv resurslarining ko'p yillik o'rtacha hajmi 51 mlrd. m kub ni tashkil etadi. Buning 21,5% i

O'zbekiston hududlarida, 78,5% i qo'shni davlatlar hududida shakllanadigan suv resurslaridir.

Jumladan, Amudaryo va Sirdaryodan 31,6 mlrd. kub metr (61%), ichki kichik daryo va soylardan 17,2 mlrd. kub metr (35%), yerosti suv zaxiralaridan 0,5 mlrd. kub metr (1%) hamda kollektor va drenaj tizimlaridan 1,7 mlrd. kub metr (3%) suv olinadi va ular asosiy suv resurslarini tashkil qiladi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, O'zbekistonda yaqin kelajakda suv tanqisligi 7 mlrd. kub metr, 2050 yillarga borib, 12-13 mlrd. kub metr bo'lishi kutilayotganini inobatga olsak, bu holatda suvni tejashning ahamiyati yanada ortadi.

So'nggi yillarda suvdan tejab foydalanish borasida olib borilgan islohotlar natijasida suvni tejavchi texnologiyalar (STT) qo'llanilgan maydonlar Navoiy (28%), Andijon (23,6%), Jizzax (21,9%) viloyatlarida kengayib bormoqda.

YaIM ning suv sig'imkorligi – bu ma'lum birlik yalpi ichki mahsulotni yaratish uchun sarflangan suv resurslari miqdorini anglatadi.

Hisob-kitoblar O'zbekistonda YaIMning har 1000 AQSh dollari qiymatidagi suv sig'imkorligi Xitoydagi shu ko'rsatkichdan 6,6 marotaba, AQSh dagidan 9,4 marotaba, Rossiyadagidan 11,6 marotaba, Yaponiyadagidan 13,2 marotaba va Germaniyadagidan 24,8 marotaba yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

Suvdan foydalanish samaradorligi bevosita suvni tejaydigan texnologiyalarni qo'llash, suv sarfini kamaytirgan holda ko'proq va sifatli mahsulot olish chora-tadbirlarini ko'rish bilan bog'liq.

Hududlarda aholining suvdan foydalanish madaniyatini yanada oshirish, suvni tejaydigan texnologiyalarni hududlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda to'g'ri qo'llash zarur.



GLOBAL SUV TANQISLIGI



2 milliarddan ortiq kishi toza ichimlik suvi ta'minotiga ega emas

5 milliarddan ortiq kishi **2050**-yilga borib suv tanqisligini boshdan kechirishi mumkin



**Shimoliy Afrika
G'arbiy Osiyo
Markaziy Osiyo**

kuchli suv tanqisligi yuz berishi mumkin bo'lgan hududlar




12-13 mlrd. m^3

2050-yildagi suv tanqisligi



YAIM NING SUV SIG'IMKORLIGI

Yaimning har 1000 AQSh dollariga teng qiymatdagi ulushi uchun sarflangan suv miqdori



Investitsiyalar

632

2019-2020-yillarda iqlim bilan bog'liq moliyalashtirishning umumiy hajmi 632 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan.

1

O'zbekiston MDH doirasida birinchi va dunyoda birinchilardan bo'lib Barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirishga qaratilgan davlat obligatsiyalari - Sovereign SDG Bonds ni joylashtirdi.

O'zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining o'рни qanday?

Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish qay darajada?

May Jun Jul Aug Sep Oct Nov Dec



"Yashil" moliyalashtirish vositalari



Dunyo va O'zbekistonda "yashil" loyihalarning moliyalashtirilishi bilan bog'liq holat tahlil qilindi.

Global Landscape of Climate Finance e'lon qilgan so'nggi hisobotga ko'ra, 2019-2020-yillarda iqlim bilan bog'liq moliyalashtirishning umumiy hajmi 632 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan. "Yashil" loyihalarni moliyalashtirishning muhim vositalari:

- "Yashil" kreditlar
- "Yashil" obligatsiyalar
- "Yashil" investitsiya fondlari
- Aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar
- Uglarod birjalari

Ayni chog'da O'zbekistonda "yashil" moliyalashtirish faolligining ortishi qayd etilmoqda. Agar u ilgari xalqaro moliya institutlarining alohida loyihalari va grantlari ko'rinishida taqdim etilgan bo'lsa, so'nggi yillarda moliyalashtirishning "yashil" kreditlar va obligatsiyalar kabi boshqa vositalari ham tatbiq etilmoqda.

Respublika hukumati MDH doirasida birinchi va dunyoda birinchilardan bo'lib Barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirishga qaratilgan davlat obligatsiyalari - Sovereign SDG Bonds ni joylashtirdi. Hajmi 2,5 trillion so'mni (235 million AQSH dollari atrofida) tashkil qiluvchi 14% li ushbu obligatsiyalar 3 yil muddatga chiqarildi.

"Yashil" moliyalashtirish vositalari xilma-xil bo'lib, korxonalariga investitsiyalarni davlat ishtirokisiz jalb qilish, "yashil" faoliyatdan moliyaviy foyda olish va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish (bartaraf etish) imkonini beradi.



O'zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining o'rnini qanday?



Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalar mamlakat iqtisodiyotida qanday rol o'ynashi tahlil qilindi.

2017-2021-yillar oralig'ida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni 2,7 baravarga oshib, 2022-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, 13,2 mingtaga yetgan.


Iqtisodiyotimizga investitsiya kiritayotgan 50 dan

ortiq mamlakat orasida Xitoy, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston va Janubiy Koreya yetakchilik qilmoqda. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar asosan iqtisodiyotning sanoat (30,6%) va savdo (28,5%) sohaslarida faoliyat yuritmoqda.

Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarda iqtisodiyotda rasman band aholining 6% i faoliyat yuritadi, biroq ushbu korxonalarining ishlab chiqarishdagi ulushi 15% ni, asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi esa 24% ni tashkil etadi. Bunday korxonalar respublikadagi jami korxonalarining 2,5% ini tashkil etsada, 2021-yilda mamlakat tashqi savdo aylanmasining 19,8% i, eksport va importning mos ravishda 19,7%i va 25%i ularning hissasiga to'g'ri kelgan. Tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik subyektlarining eng samarador va eng faol qatlami hisoblanadi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga ko'ra kelgusi 5 yilda iqtisodiyotga 70 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda 2026-yilga borib, eksport hajmini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish maqsad qilingan.

Ushbu maqsadlarga erishishda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonini oshirish, shuningdek, ularning eksport faoliyatini rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.



Aholi farovonligini ta'minlash

Qaysi indikatorlar kambag'allik belgisi bo'lishi mumkin?

Kambag'allar inson uchun kundalik zarur bo'lgan mahsulotlar savatining necha foizini xarid qila oladi?

Geografik joylashuv aholi daromadlariga qanday ta'sir qiladi?

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishning ustuvor yo'nalishlari qanday?

Daromad, bandlik, ijtimoiy yordam olganlik, shahar yoki qishloqda istiqomat qilish va migratsiya subyektiv farovonlikka qanday ta'sir etadi?



Kambag'allik masalasi bo'yicha aholi fikri



70 SONIYA

Hozirda ko'p tadqiqotchilar va amaliyotchilar kambag'allik nafaqat monetar, balki insonning hayot kechirish sifatini belgilovchi boshqa turli omillar yig'indisidan tashkil topgan (ko'p o'lchovli) deb hisoblaydilar.

Masalan, Kambag'allik va inson potentsialining rivojlanishi muammolari bo'yicha Oksford universiteti tashabbusi tomonidan har yili e'lon qilinadigan Global ko'p o'lchovli kambag'allik indeksida kambag'allikni hisoblashda ozuqa, bolalar o'limi, ta'lim davomiyligi, maktabga borish, taom pishirishda ishlatiladigan yonilg'i turi, sanitariya, ichimlik suvi, elektr ta'minoti, uy-joy bilan ta'minlangalik va moddiy aktivlar kabi indikatorlardan foydalanadi.

Amaliyoda har bir davlat aholisining yashash tarzi va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'z Milliy ko'p o'lchovli kambag'allik indeksini (MPI) ishlab chiqadi. Milliy MPI indikatorlarini tanlab olishda asosan quyidagi usul yoki bir necha usullar kombinatsiyasidan foydalanishadi:

- Aholining kambag'allik haqidagi fikrini chuqur o'rganish;
- Ekspertlar, tadqiqotchilar va amaliyotchilar orasida ko'psonli muhokamalar yordamida aniqlash;
- Milliy strategiyalar va konsepsiyalar asosida;
- Mavjud nazariy bilimlar asosida.

PMTI ekspertlari aholining kambag'allik haqidagi fikrini o'rganish asosida Milliy ko'p o'lchovli kambag'allikning o'lchovlarini aniqlash maqsadida Navoiy viloyatida aholi o'rtasida (300 ta xonadon) so'rov o'tkazdi.

Natijalarga ko'ra, Navoiy viloyati aholisi kambag'allik belgilari sifatida birinchi o'rinda ishsizlik, shaxsiy uyning yo'qligi, to'yib ovqatlanmaslik, savodsizlik, keyingi o'rinlarda esa surunkali kasalliklarning ko'p bo'lishi, bolalarning maktabga bormasligi, mavsumiy bandlik, go'sht va tuxumning kam iste'moli, bolalarning kasallikdan vafot etishi va bolalarning daromad topish uchun mehnat qilishi kabi indikatorlarni ahamiyatli deb topdi. Ushbu holat aholining turli qatlam vakillari uchun qayta hisoblanganda ham saqlanib qoldi.

Olingan natijalar PMTIga mehmon bo'lib tashrif buyurgan Kambag'allik va inson potentsialining

rivojlanishi muammolari bo'yicha Oksford universiteti tashabbusi Dasturlar va operatsiyalar bo'yicha direktor Korin Mitchel xonim tominidan ijobiy baholandi.

O'zbekistonda kambag'allarning oziq-ovqat mahsulotlardan iqtisodiy va jismoniy iste'mol qila olish imkoniyati hisoblandi.



70 SONIYA

Kambag'allarning asosiy oziq-ovqat ehtiyojlarini qondirish oziq-ovqatning borligi va hamyonbopligi nuqtai nazaridan o'lchanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari inson salomatligi va faol hayotini ta'minlash uchun yetarli, tibbiy me'yorlarga javob beradigan hajm va assortimentda bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2021-yilda uy xo'jaliklarini o'rganish bo'yicha hisob-kitoblar quyidagilarni ko'rsatdi:


Kambag'allar uchun oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligi kunlik kaloriya miqdori bo'yicha me'yordan 20% ga baland, ya'ni jon boshiga kunlik ratsiondagi kaloriya miqdori 2629 kkalni tashkil etdi (me'yor esa 2196 kkal hisoblanadi).

Iste'molda oqsil-yog'-uglevod nisbatining muvozanati. Hisob-kitoblarga ko'ra, kambag'al uy xo'jaliklari uchun kunlik ratsiondagi oqsil-yog'-uglevod nisbati 1:1,2:5,1 ekanligi aniqlandi. Tibbiy standard bo'yicha me'yor qiymat esa 1:1:3,5 etib belgilangan. Ushbu me'yordan biroz og'ish aholining ovqatlanish madaniyati va urf-odatlar bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, iste'molda muvozanatning bo'lmasligi semizlik va yuqumli bo'lmagan kasalliklar (yurak-qon tomir kasalliklari, saraton, surunkali nafas olish kasalliklari, diabet) xavfini oshirishi mumkin.

Kambag'al uy xo'jaliklarining iqtisodiy jihatdan ta'minlanganlik koeffitsiyenti, ya'ni iste'mol qilingan oziq-ovqat savati qiymatining me'yoriy savat qiymatiga nisbati 82% ni tashkil etdi. Bu asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning nisbatan yuqori darajada qondirilishidan dalolat beradi. Ushbu 30% dan past bo'lgan holatlar xatarli deb hisoblanadi.



Oziq-ovqat mahsulotlari iste'molidagi farq (mahsulot turlari bo'yicha)



Qishloq joylardagi aholi daromadlarini qanday oshirish mumkin?



Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ekspertlari qishloq joylaridagi aholi daromadlarini oshirish omillarini tahlil qildi. Uy xo'jaligi boshlig'ining yoshi va jon boshiga daromad o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik aniqlandi. Oila boshlig'ining yoshi ulg'aygani sari o'rta hisobda tajriba va ko'nikmalar ham oshib borishi, bu o'z navbatida, daromadning ortishiga sabab bo'lishi ushbu bog'liqlikni izohlaydi.

Oila boshlig'ining jinsi ham xonadonning daromadi uchun ahamiyatli omil, ya'ni oila boshlig'i ayol bo'lgan xonadonlarning kambag'allikka tushib qolish ehtimoli yuqoriroq ekanligi olimlar tomonidan aniqlangan. Geografik joylashuv ham aholi daromadlariga ta'sir qiladi. Unga ko'ra, qishloq joylarda mahsuldorlik yuqori bo'lgan yerlar atrofida yashovchi aholining daromadlari yuqori bo'ladi.

Geografik joylashuvning daromadga ta'siri bo'yicha yana bir muhim tadqiqot chekka hududlardagi xonadonlarning asosiy yo'ldan qanchalik uzoqda joylashganini inobatga oladi. Indoneziyada shahar tashqarisidagi uy xo'jaliklarida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, asosiy yo'ldan 10 kilometrgacha masofada joylashgan xonadonlar 10 kilometrdan uzoqroqda joylashgan xonadonlarga nisbatan 0,2% ko'proq daromad topadi.

PMTI tomonidan Navoiyda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, o'rtacha qishloq xonadonida yashovchi fuqaro asfalt qilingan yo'lgacha 4,8 km masofa bosar ekan. Ekonometrik tahlillarga ko'ra, xonadondan asfalt qilingan asosiy yo'lgacha masofa bir kilometrga qisqarganda uy xo'jaligining umumiy ish haqidan daromadi 4,2% ga oshadi.

Ma'lumot uchun: 2022-2026 yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida ichki ko'chalarning 27 700 kilometrdan ortiq qismi ta'mirlanadi. Xususan, Navoiy viloyatida 2022-yil davomida qiymati 58 620 million so'mga teng bo'lgan 180,7 km ichki yo'llarning ta'mirlanishi ko'zda tutilgan. Ushbu dasturlar qishloq joylardagi aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.



"Yashil" iqtisodiyotga o'tish sharoitida kambag'allikni qisqartirish konsepsiyasi



Mamlakatimizdagi mavjud strategik hujjatlar, xorijiy amaliyot va mavjud vaziyat tahlili asosida "yashil" iqtisodiyotga o'tish sharoitida kambag'allikni qisqartirishning maqsad, vazifalari va ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi.

Konsepsiyaning asosiy ustuvor yo'nalishlari sifatida "yashil" rivojlanish uchun yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga asoslangan iqtisodiy o'sish, "yashil" ish o'rinlarini, shu jumladan aholining kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun ish o'rinlarini tashkil etish, kambag'allarga ishonchli va zamonaviy energiya ta'minotidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan holda YaIMni yaratishda energiya sarfini kamaytirish, ekologik oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat mahsulotlari, xizmatlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish begilangan.

Atrof-muhit nuqtai nazaridan iqlim ta'sirini (qurg'oqchilik, suv toshqini, tuproqning degradatsiyasi, suv tanqisligi) aholining kambag'al qatlamiga, ayniqsa qishloq joylarda kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash, zararsizlantirish va utilizatsiya qilish, inson sog'lig'i uchun xavfni kamaytirish, kam ta'minlanganlar uchun ushbu sohada ish o'rinlari yaratish masalasi ko'rib chiqildi.

"Yashil" shaharlarni yaratish, aholining kambag'al qatlamlari zamonaviy energiya ta'minoti, ichimlik suvi va arzon kommunal xizmatlardan foydalanishini ta'minlash, ta'lim va kadrlar tayyorlashni yashillashtirish, "yashil" ko'nikma va kasblarga o'rgatish, "yashil" shaharlarni rivojlantirish hamda "yashil" tibbiyot va farmatsevtika masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Subyektiv farovonlikning metodologik asoslari va uning determinantlari



Subyektiv farovonlikni aniqlashning metodologik asoslari ko'rib chiqildi hamda unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Jizzax viloyatida o'tkazilgan ijtimoiy tadqiqot natijalaridan foydalangan holda subyektiv farovonlikka ta'sir etuvchi omillar

aniqlandi. Mavjud adabiyotlarda tasdiqlangan farovonlikka ta'sir qiluvchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillar o'rganildi. Probit modeliga asoslangan hisob-kitoblarga ko'ra, oilalar farovonligini oshirishning eng muhim omillari sifatida daromad, iste'mol, oliy ma'lumotlilik, oilaviy ahvol va farzandlarning bor-yo'qligi aniqlandi.

Daromadlar. Uy xojaliklari daromadining har 1 million so'mga o'sishi past farovonlikdan o'rta farovonlikka o'tish ehtimolini 40% ga oshirishi aniqlandi.

Bandlik (sohalar bo'yicha). Iste'mol ham o'z navbatida barcha modellarda daromadga nisbatan subyektiv farovonlikni oshirishda ko'proq ta'sir etishini ko'rsatmoqda. Uy xojaliklari daromadining har 100 ming so'mga o'sishi past farovonlikdan o'rta farovonlikka o'tish ehtimolini 20% ga oshirishi aniqlandi.

Ijtimoiy yordam olganlik. Ishimoiy yordam olganlik uy xo'jaligining past farovonlikdan o'rta farovonlikka o'tish ehtimolini 80% ga pasaytiradi. Bunga sabab ijtimoiy yordamning asosan farovonligi past bo'lgan uy xo'jaliklariga berilishidir.

Shahar yoki qishloq. Shaharda yashash barcha modellarda o'rta hisobda subyektiv farovonlikning tushishini ko'rsatmoqda, ya'ni shaharda yashash uy xo'jaligining past farovonlikdan o'rta farovonlikka o'tish ehtimoli 23% ga pasayishiga olib keladi.

Uy xo'jaligi a'zosi mehnat migratsiyasida. Mehnat migratsiyasining subyektiv farovonlikka ta'siri yo'qligi aniqlandi.

Integral farovonlik indeksi ishlab chiqildi



55 SONIYA

Farovonlikka olib keladigan asosiy omillarni o'rganish maqsadida ko'p yillik ijtimoiy tadqiqotlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari birlashtirilib, hududlararo Integral farovonlik indeksi ishlab chiqildi.

Indeks 6 ta quyidagi o'zaro bog'liq omillardan tashkil topgan: daromadlar, bandlik, ta'lim, ijtimoiy himoya, xizmatlar sifati, subyektiv

baholash. Jizzax viloyati misolida hisoblangan indeks quyidagilardan iborat:

Daromad indeksi. Har bir uy xo'jaligi a'zosining individual daromad indeksi qiymatlari yig'indisi asosida indeks hisoblandi va u 0,758 ni tashkil etdi.

Bandlik indeksi. Jami ish bilan bandlar soni iqtisodiy faol shaxslar soniga bo'linganda 0,804 ni tashkil etdi.

Ta'lim indeksi. Uy xo'jaliklarining oliy ma'lumotli va o'rta-maxsus ma'lumotga ega yoshi katta a'zolari aniqlandi. Ushbu ko'rsatkich 0,608 ni tashkil etdi.


Ijtimoiy himoya indeksi. Uy xo'jaligida oila a'zolaridan birortasining murojaati asosida so'nggi 2 yil ichida ijtimoiy nafaqa yoki moddiy yordam olganlar aniqlandi. Ushbu ko'rsatkich 0,64 ni tashkil etdi.

Ijtimoiy xizmatlar sifatini baholash indeksi. Bu indeks faqat uy xo'jaligi darajasida baholanadigan ijtimoiy xizmat sifatini indekslaydi. Bu 0,776 ni tashkil etdi.

Subyektiv baholash indeksi. Bu indeks faqat uy xo'jaligi darajasida baholanadigan farovonlik darajasini indekslaydi. Misol uchun, tumandagi uy xo'jaliklarining subyektiv baholagan farovonlik darajasi 0,718 ni tashkil etdi.

Shu tariqa umumiy integral farovonlik indeksi aniqlandi (0 – past farovonlik, 1 – yuqori farovonlik).

Uy xo'jaligi farovonligi darajasi indeksi



INSTITUT JAMOASI

IFMR

Institute of Forecasting and
Macroeconomic Research



